

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

Abdualiyev Otabek Kamilovich

**Mavzu: "Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning
ilmiy-uslubiy asoslari (umumta'lim maktablari misolida)."**

5A111101-Musiqiy ta'lim mutaxassisligi

MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN

DISSERTATSIYA

Magistrlik ishi "Musiqqa ta'limi" kafedrasi 20__ yil "___" _____ № __ yig'ilishida ko'rib
chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

dots.I.Qudratov _____

"Pedagogika" fakulteti

"Musiqqa ta'limi" kafedrasi mudiri:

kat.o'qit.E.K.Djalilov _____

SAMARQAND -2016

Mundarija

Kirish.....2-11

I.BOB: Ta'lim va tarbiya tizimida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari

1.1. Musiqa san'atining estetik tarbiyada tutgan o'rni.....12-20

1.2. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosida o'quvchilarni estetik tarbiyasida foydalanish muammolari.....20-28

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....29-30

II.BOB: Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyani tashkil etishning pedagogik omillari.

2.1. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanishga qo'yiladigan pedagogik talablar.....31-36

2.2. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish mazmuni.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....37-48

III.BOB: Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish amaliyoti va uning samaradorligi.

3.1. Estetik tarbiyada xalq musiqa merosidan foydalanish bo'yicha amaliy tajribalar mohiyati.....49-56

3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari tahlili.....57-62

Umumiy xulosalar va tavsiyalar.....63-65

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....66-70

Mavzu: Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari (umumta'lim maktablari misolida).

Reja

Kirish.

I.BOB: Ta'lim va tarbiya tizimida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari.

1.1. Musiqa san'atining estetik tarbiyada tutgan o'rni.

1.2. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosida o'quvchilarni estetik tarbiyasida foydalanish muammolari.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.

II.BOB: Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyani tashkil etishning pedagogik omillari.

2.1. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanishga qo'yiladigan pedagogik talablar.

2.2. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish mazmuni.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.

III.BOB: Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish amaliyoti va uning samaradorligi.

3.1. Estetik tarbiyada xalq musiqa merosidan foydalanish bo'yicha amaliy tajribalar mohiyati.

3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari tahlili.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Umumiy xulosalar va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar, yangilanishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», shuningdek keyingi yillarda chiqarilgan bir qator ta'lim-tarbiyaga oid davlat dasturlari, qaror, farmoyishlar ham huquqiy ham tashkiliy pedagogik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqishiga sabab bo'lgan Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya masalalariga qaratilgan fikr-g'oyalari ushbu yo'nalishdagi tub islohotlarni o'tkazilishi va yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 16 avgustdagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim standartlariga berilgan sharhlar 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida qayta ko'rib chiqilib, Davlat ta'lim standartlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bir-biridan ajratilgan hamda sinflar kesimida alohida belgilab berilishi har bir o'quv yilida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ijobiy natijalarni bermoqda.

Bular o'z navbatida barcha fanlar qatori umumta'lim maktablarining «musiqa madaniyati» fanini o'qitilishida, musiqiy ta'limni milliy asoslarini mustaxkamlashda yangi ufqlar ochmoqda. Xususan, musiqiy estetik ta'lim mazmunini milliy negizini yanada boyitish, takomillashtirish, o'quvchilarni g'oyaviy, madaniy, mafkuraviy va estetik madaniyatini barkamol shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunida xalq musiqasining nufuzi, ahamiyatini oshirishga hozirgi kundagi ustuvor vazifa sifatida qaralayotganligi ham e'tiborga molikdir.

Musiqiy ta'lim mazmunini milliy xalq musiqa merosiga tayangan holda takomillashtirish vazifalari o'quvchilarda xalq musiqasiga, uning tarixi, an'analari ijrochilik uslublari, shakllari, janrlariga barqaror qiziqishni, ularga muhabbat bilan qarash, o'rganish, kuylash va rivojlantirishga ishtiyoq tuyg'ularini tarkib toptirishni taqozo etadi. Chunki, xalq musiqa merosi xalqimiz o'zligining, milliy qiyofasi, ruhiyatini, tili, tarixi, adabiyoti, etnik xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi milliy qadriyatdir. O'sib kelayotgan yosh avlod o'z milliy musiqasini yaxshi bilmas ekan, u o'zga xalqlar va hatto zamonaviy janrlardagi musiqani ham his qilishi, tushunishi, idrok qilishi qiyin. Zero, xalq musiqasini his etmasdan, zamonaviy musiqani idrok etib bo'lmaydi.

Shu ma'noda mustaqillik yillarida xalq musiqa merosi, jumladan, xalq qo'shiqlari, mumtoz va folklor asarlari vositasida estetik tarbiyani tashkil etish, shu jarayonda o'quvchi-yoshlarni, talabalarni estetik didi, estetik madaniyatini, odob va ahloqiy fazilatlarini shakllantirish borasida salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi va natijalar amaliyotga tadbiiq etildi. Bu ishlarni tizimli ravishda davom ettirish, estetik ta'lim-tarbiya ishlarida xalq musiqa merosidan maqsadli va unumli foydalanishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shuning uchun ham umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq musiqa merosidan foydalanishning pedagogik hamda ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishni dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etish lozim topildi. Respublikamiz musiqa pedagogikasida ushbu muammo «Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari» nomlanishda maxsus tadqiq etilmaganligi tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy-madaniy merosini o'rganish, ularni tiklash, ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tadbiiq etishga katta e'tibor qaratildi. Milliy musiqiy meros, musiqiy asarlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarning shaxs kamolotidagi o'rni, estetik ta'lim-tarbiya jarayonida xalq musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish, o'quvchi-yoshlar, talabalarda milliy qo'shiqlarga qiziqishni o'stirish, shu orqali ularni ahloqiy, estetik madaniyati, badiiy didini shakllantirish masalalari ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarining mavzusi sifatida o'rganilgan.

Turli bosqich ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani tashkil etish, xususan xalq musiqasi vositasida estetik tarbiyani tashkil etish, musiqa ta'limini ilmiy asoslarda shakllantirish, musiqiy-badiiy janrlar orqali yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash masalalari dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq va tahlil qilindi.

Республикамизда бизнинг тадқиқот мавзуларимизга яқин бир канча илмий ишлар амалга оширилмоқда. Jumladan, X.Nurmatovning «Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari» [30] nomli doktorlik dissertasiyasida kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni musiqiy estetik madaniyatini xalq musiqasi asosida shakllantirish maqsad qilib olingan va uning pedagogik imkoniyat va shart-sharoitlari ilmiy asoslab berilgan. Pedagog olim B.Azimovning nomzodlik dissertasiyasi xalq qo'shiqlari vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash» mavzusida bo'lib, unda xalq qo'shiqlari vositasida shaxsni ma'naviy-ahloqiy jixatdan kamolga yetkazishning pedagogik, psixologik va an'anaviy badiiy jixatlari yoritib berilgan.

A.Sh..Xasanovning «Xalq musiqasi yoshlarni ahloqiy estetik tarbiyalash vositasi sifatida» deb nomlangan tadqiqoti mazmunida oliy ta'lim muassasalarida musiqiy estetik ta'limni xalq musiqasi negizida tashkil etish, shu jarayonda yoshlarda milliy ahloq normativlarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

I.Qudratovning pedagogika fanlari nomzodi illmiy darajasini olish uchun yoqlagan dissertasiyasida Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash mazmuni, shakl, usul, vositalari tadqiq etilgan bo'lsa [31], E.M.Fayzullayevning «Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirish shart-sharoitlari» (34) nomli nomzodlik ishida o'zbek xalq musiqasining mumtoz namunalari vositasida talabalarning musiqiy badiiy didini shakllantirish mazmuni, tamoyillari, bosqichlari, shakl, usul-vositalari yoritib berilgan.

O'zbekiston sarhadida yashovchi turli millatlarni xalq musiqasi ko'p jihatdan o'zbek millatining milliy-musiqiy qadriyatlariga hamohang bo'lib, ularda mujassamlashgan umuminsoniy g'oyalar umummilliy boylik, qadriyat sanaladi. S.Ye.Romonova tomonidan bajarilgan dissertasiya tadqiqot [35] ishida Qoraqalpoq musiqiy-an'analari mazmunini o'rganish, ulardan ta'lim-tarbiya, jumladan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish masalalari o'rganilgan.

Milliy musiqiy merosning nazariy masalalari ko'plab san'atshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot va monografik materiallarida ancha keng yoritilgan. Bunga R.Abdullayev, T.G'ofurbekova, O.Ibragimov, F.Karomatov, O.Matyoqubov kabi ko'plab olimlarning ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Keyingi yillarda musiqa pedagogikasi yo'nalishida himoya qilingan ishlar orasida B.X.Medrimovning «Xorazm musiqasi folklori vositasida

o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari» (5-7-sinflar misolida) nomli tadqiqot ishi alohida ahamiyatlidir [28]. Ushbu tadqiqot ishi natijalari musiqa pedagogikasini Xorazm musiqa folklorlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga oid yondashuvlar, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitdi.

Aynan xalq musiqa folklori xalq qo'shiqlari orqali estetik tarbiyani amalga oshirishning nazariy va amaliy jixatlari yoritilgan ishlar orasida D.Djamolova, N.Toliboyev [17], M.Ismoilovalarning dissertasiya ishlari alohida o'rin tutadi.

Bir qator ilmiy-uslubiy ishlarda musiqiy-estetik tarbiyani tashkiliy-uslubiy asoslari yoritilgan.

Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning musiqani tinglash, idrok etish, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va bu jarayonni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Bunga I.Qudratov, N.Toliboyevlarning «Boshlang'ich sinf musiqa darslarida xalq qo'shiqlarini o'rgatish» [30], N.Kushatov taxriri ostida chop etilgan. «Estetik tarbiya asoslari» [20], D.Soipovanning «Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish» [32], E.Fayzullayevning «Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish». [36], A.Xasanovning «Musiq va tarbiya» [37] kabi o'quv-uslubiy manbalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda mustaqillik yillarida estetik tarbiya yo'nalishida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quv, uslubiy manbalarni tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq musiqasi asosida estetik, ahloqiy, ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, bunda xalq musiqasi imkoniyatlaridan samarali

foydalanishda muayyan kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqot muammosi sifatida «Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari» mavzusi tanlangan.

Tadqiqot maqsadi: o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalashda xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablari «musiqa madaniyati» darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq musiqa merosidan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning mazmuni, usul va vositalari.

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga oid tarixiy, ilmiy, uslubiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish;
2. Estetik tarbiya sohasida faoliyat yurituvchi olimlar, pedagoglar, musiqa o'qituvchilari bilan suxbatlar o'tkazish;
3. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni xalq musiqa merosi bilan tanishtirishning mavjud holatini, muammolarni o'rganish;
4. Xalq musiqa ta'limida musiqa merosi namunalari asosida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalash imkoniyatlarini o'rganish.
5. Xalq musiqa merosi vositalarida estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyatning eng maqbul usul va vositalarini aniqlash.
6. Xalq musiqa merosi vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonini mufaffaqiyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Agar:

- Xalq musiqa merosi vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalash imkoniyatlari pedagogik nuqtai-nazardan o'rganilsa va aniqlansa;

- Xalq musiqa merosi vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalash jarayonining mazmuni, ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilsa;

- Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyalash jarayonini samaradorligini ta'minlash imkonini beruvchi ish usul vositalari aniqlansa;

- Xalq musiqa merosi va vositasida estetik tarbiyani amalga oshirish borasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari, ilg'or tajribalar umumlashtirilib, foydali xulosa va tavsiflar ishlab chiqilgan o'quvchilarni o'quvchilarni xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyalash jarayonining samaradorligi ta'minlanadi.

Tadqiqot metodlari:

Pedagogik kuzatuv, pedagogik tahlil, anketa-so'rov, savol-javoblar o'tkazish, ilmiy-uslubiy manbalarni qiyosiy o'rganish, nazariy ma'lumotlarni amaliy ishlar bilan qiyosiy taqqoslash, tajriba-sinov o'tkazish, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Yosh avlod (o'quvchilar) estetik tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanish muammosi musiqa pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida ilmiy-pedagogik muammo sifatida o'rganildi.

2. O'zbek xalq musiqa merosini o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalashdagi imkoniyatlari aniqlandi;

3. Yosh avlod (o'quvchilar) ning estetik tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi.

4. Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyani amalga oshirish uchun tanlangan metodika amaliy tajribadan o'tkazildi va samaradorligi aniqlandi.

5. Xalq musiqa merosi vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik madaniyatini shakllantirish jarayonini muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekistonda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturi, Prezident I.A.Karimovning «Ta'lim va tarbiyaga» oid asarlari, ma'ruza-nutqlari, O'zbekiston Vazirlar Maxkamasining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror, farmoyishlari, me'yoriy, dasturiy xujjatlar, Umumiy o'rta ta'limning musiqa predmeti bo'yicha Davlat ta'lim standart iva o'quv dasturi, darsliklar, pedagogika, psixologika, san'atshunoslikka oid ilmiy, uslubiy manbalar xisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:

Pedagogika nazariyasi va tarixi, musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi fanlari o'quvchilarni xalq musiqa merosi vositasida estetik madaniyatini shakllantirishga oid nazariy va amaliy yondashuvlar bilan boyitildi. O'zbek xalq musiqa merosi asosida o'quvchi-yoshlarning estetik tarbiyasini shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar, shuningdek tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqildi. Ulardan umumta'lim maktablarida «musiqa madaniyati» predmetini o'qitishda, shuningdek, pedagogika kollejlari musiqiy ta'lim yo'nalishi, ixtisoslashgan musiqa maktablari faoliyatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi va ma'qullanganligi: tadqiqot ishining mazmuni va natijalari, ilmiy xulosalari

ilmiy-uslubiy seminarlar, ilmiy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda, ilmiy-uslubiy maqolalar to'plamlari, jurnallarda e'lon qilingan maqolalarda, shuningdek A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti magistrantlarining 2013-2015 yillardagi an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyalarida o'qilgan ma'ruzalarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi va muxokamadan o'tganligi.

Tadqiqotning maqsadi vazifalari, ilmiy farazi ishlab chiqilgan nazariy qoidalarni ilmiy xulosa va tavsiyalarni tadqiqot predmeti vazifalari bilan o'zaro mosligi, taqdim etilgan materiallarning representativligi, ularning ishlab chiqilgan ish usul, vositalarida o'z ifodasini topganligi olingan natijalarning matematik-estetik tahlili bilan isbotlangan.

Tadqiqot ishi A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti «musiqa ta'limi» kafedrasida uslubiy seminari yig'ilishlarida bir necha bor muxokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganlik darajasi: Dissertatsiya materiallari mazmuni bilan bog'liq 4 ta ilmiy maqola, 1 ta metodik ko'rsatma chop etilgan.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- Yosh avlod (o'quvchilar) estetik tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

- Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, ilmiy nazariy asoslari;

- Xalq musiqa merosi orqali estetik tarbiyani amalga oshirish jarayonini samarali kechishini ta'minlovchi ish, usul, shakl, vositalari (amaliy asoslari) ;

- Xalq musiqa merosi vositasida o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllanganligi darajasini aniqlovchi mezonlar.

- xalq musiqa merosi vositasida o'quvchi yoshlarning estetik madaniyatini shakllash jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar.

Dissertasiyaning tarkibiy tuzilishi: Dissertasiya kirsh, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami_____ sahifani tashkil etadi.

I. BOB: Ta'lim va tarbiya tizimida xalq musiqa merosidan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari.

1.1. Musiqa san'atining estetik tarbiyada tutgan o'rni.

Jahon ta'lim tizimida ko'rsatilayotgan jiddiy evrilishlar tafakkur ham dunyoqarash o'zgarayotganligi, fanlararo integrasiyalashuv jarayonlarini juda tez sur'atlarda kechayotganligi bilan izohlanadi. Bular o'z navbatida milliy ta'lim jabhasida sog'lom metodologik poydevor ham bo'lishi uchun hayotiy ehtiyojni yanada teranlashtirish ehtiyojini kuchaytiradi. Shunga ko'ra respublikamizda ta'limni milliy asoslarda shakllantirishning qonuniy asoslarini belgilovchi «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy daasturi» loyihalari islohotchilik yo'nalishida o'qitish mazmuni, uslubiyatini tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Negaki, respublikamizda ta'lim tizimini jahonning rivojlangan mamlakatlari andozalari darajasiga ko'tarish, ularni har jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirish hozirgi kunda «Yoshlarning milliy ruhiyatini o'stirish, vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish, millatga, uning tarixi, tili, madaniyati, milliy qadriyatlariga mehr muhabbatni, qadriyatlarga munosabat va e'tiqodini tarbiyalash davr talabi darajasiga ko'tarildi».

Aslida inson fe'l-atvoridagi nafosat sezgisini muntazam takomillashtirib borish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etgan. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yosh-avlodning estetik tarbiyasini barqarorlashtirishda san'at, jumladan musiqa san'ati muhim o'rin egallaydi. Vaholanki, ta'lim-tarbiya uzviy birikuvli ahloqiy estetik tarbiya mezonlarini aniqlovchi mohiyat darajasiga ega.

Inson shaxsini ma'naviy-ruhiy yuksalishshida tajriba va an'analar pillapoya vazifasini bajaradi. To'g'rirog'i, shaxs-tabiati-jamiyat uzviy aloqadorligi muayyan, intizomiy, tarbiyaviy tizimni hosil qiladi. Farzand dunyoga kelgan paytdan boshlaboq qonuniy tarzda millat aqliy va hissiy zaxiralarini o'zlashtira boshlaydi. Muttasil davom etadigan jarayonda u ma'naviyat xazinasini ta'sirini o'z sajiyasiga singdiradi. Ruhiy ma'naviy va estetik shakllanganlikni ta'minlovchi omillar sirasiga milliy urf-odatlar, xalq turmush tarzi, uziga xos ko'rinishini belgilovchi xususiyatlarini ifoda etuvchi xalq qo'shiqlari, kuylarini kiritish mumkin. Xalq musiqasida aynan xalq irodasi, ruhiyati, ma'naviy qiyofasi o'z ifodasini topadi.

Yosh avlod ongiga milliy g'urur, milliy iftixor va milliy o'zlik tuyg'ularini singdirish, ularni yuksak insoniylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda «xalq donishmandligining ko'zqusi» hisoblangan xalq musiqasi merosi mustahkam salmoq kasb etadi. Xalq dostonlarida mujassamlashgan tarbiya motivizatsiyasi, qo'shiqlarda in'ikos topgan umuminsoniy mushohadalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bois pedagogika fani, shu sohada ijod qilgan mutafakkirlar, faylasuflar, olimlar, xalq musiqasi merosi mazmunida jo bo'lgan g'oyalarni ta'lim-tarbiya maskanlarida qo'llashni tavsiya etishadi. Zero, o'z davridan birinchi muallimi deb nom qozongan Aristotel «musiqada insonni ahloqiga ta'sir etish xususiyatlari mavjud, shu bois uni tarbiyaviy fanlar tarkibiga kiritish lozim» deb ta'kidlagan edi. Dunyo ilm fani taraqqiyotiga yuksak hissa qo'shgan sharq allomallari Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham musiqaning inson tarbiyasiga ijobiy ta'siri haqida ilmiy asosli fikrlarni bildirishgan, maxsus ilmiy asarlar bitishgan, o'zlari bevosita musiqasi amaliyoti bilan shug'ullanishgan.

Qat'iy vorisiylik qonuniyatlari vositasida an'anaviylik tusini olgan xalq qo'shiqlari alla, yalla, terma, ashula, lapar, mehnat, mavsum-marosim, diniy mavzudagi qo'shiqlarda millat zakosi, ajdodlarimiz orzu-istaklari tajassum topadi. She'riy matnlar bilan aytiluvchi qo'shiqlar faqat poetik asar emas, balki ular mazmunida yoshlar uchun o'git-nasihat keng o'rin olgan. Ular ta'lim tarbiyaviy, didaktik she'riyatning yuksak namunasi hisoblanadi. Ular mazmuniga nihoyatda yuksak mahorat bilan bog'langan ohanglar poetik asarning tarbiyaviy ta'sirchanligini bir necha karra yuqori darajaga ko'tarilishi uchun xizmat qiladi. Darhaqiqat, so'z va musiqa inson hissiy idrokiga tez ta'sir o'tkazadigan vositalardir, negaki «musiqa – voqyelikni ohang vositasida badiiy obraz tasavvuriga aylantira olish qudratiga molik san'at turi hisoblanadi». Shu boisdan musiqa madaniyati odamzot ruhoniyyati tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Aynan ohang ma'rifati estetik sezgini ham uyg'otish, ham mustahkamlashda eng ta'sirchan vosita hisoblanadi.

Pedagog va psixolog olimlarining ilmiy tadqiqotlari va o'tkazilgan ilmiy amaliy tajribalariga ko'ra bola homila paytidanoq ohangni his qiladi. Uning olamni idrok qilish, dunyoqarashni rivojlantirishda, shaxs sifatida shakllanishida ham musiqa o'ziga xos o'rin tutadi. Negaki, san'at turlari odamga tovushlar uyg'unligi orqali tez ta'sir o'tkazadi. Musiqiy ishtiyoq balandligi inson tabiatida zohir. Buni biz har qadamda his qilishimiz mumkin. «Musiqiy ta'lim – bu musiqachini tarbiyalash emas, eng avvalo odamni, insonni tarbiyalashdir» - degan edi pedagog V.A.Suxamlinskiy. (38). Zotan, musiiqa san'ati va tarbiya uslubiyati bir-biriga muqobil tushunchalar, ikkala jabxa manfaatlari mushtarakligini barkamol inson istagi jipslashtiradi. Jamiyat estetik ideali shakllanishida har ikki qutb muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya ta'limning bir bo'lagi hisoblansa, musiqa ma'naviyati

trgagidir. Negaki, xalq o'zi qancha umr ko'rsa, uning musiqasi ham shunchalik hayotiylik kasb etadi.

Xalq musiqasida teran falsafa jilolanadi. U inson qon-qoniga singib ketgan sog'lom, ongli e'tiqodning ajralmas qismi hisolanadi.

Asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida xalqona, milliy xususiyatlarni aks ettirgan musiqa ijodiyoti tarkibida qo'shiqchilik alohida o'rin tutadi.

O'zbek xalqining madaniy merosida xalq tomonidan ijod qilingan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bayramlar, ommaviy o'yinlar, mavsumiy, kasb-hunar marosimlari o'z o'rnida insonlarni ma'naviy ham estetik tarbiyalash vositasi bo'lib kelgan. Xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodlar tomonidan har bir bayram tadbirlariga, turli mehnat bilan bog'liq jarayonlar mohiyatiga mos qo'shiqlar yaratilgan. Ular faqat bayramona sho'x kayfiyat, xursandchilik mavzusida bo'lmay, yuksak insoniy tuyg'ular, vatanga muhabbat, qahramonlik, sof mehr-muhabbat, qon-qarindoshlik munosabatlari, oila sharafini e'zozlash, kishilar xotirasini yod etish kabi ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Bularning barchasi kishilar hissiyotiga emosional estetik ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham mustaqillikdan so'ng milliy ta'limning asoslarini ishlab chiqishda xalq musiqa merosiga ustuvor e'tibor qaratildi. 1995 yilda e'lon qilingan «Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi» Konsepsiyasida miilliy musiqiy ta'limning mazmuni va tuzilishining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bular:

- o'quvchi- yoshlarni musiqa madaniyatini shakllantirishning zamonaviy talablari;

- musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunida milliy musiqiy meros hamda xalq pedagogikasining ustuvorligi;

- milliy musiqa merosimiz yaratuvchilik va bunyodkorlik faoliyatiga ko'maklashuvchi va estetik tarbiyaning yuksalishiga munosib xissa qo'sha olishi;

Mazkur maqsad va vazifalar musiqa san'atti orqali yosh avlodni estetik tarbiyalashni shakllantirish mazmuni va mohiyatini o'zida to'liq ifoda eta oladi.

Shunga ko'ra biz tadqiqotimiz maqsadi va farazi nuqtai-nazariidan musiqa san'atining estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, shu asosda musiqiy ta'lim vositasi sifatida xalq musiqa merosidan foydalanishni maqsadga muvofiqlik jihatlarini aniqlash, ularda mujassam bo'lgan estetik g'oyalar, tarbiyaviy ahamiyatga molik pedagogik qarashlarga asosiy e'tiborni qaratdik.

Musiqa ta'limida o'quvchi-yoshlarni milliy xalq musiqa merosi asosida estetik madaniyatini shakllantirish juda serqirra va keng diapozondagi pedagogik faolitni o'z ichiga oladiki, bu faoliyatni dars va sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy va tarbiyaviy ishlar uyg'unligida yo'lga qo'yish bilangina muayyan natijalarga erishish mumkin. Bu narsa pedagog olim A.Sh.Hasanovning «Xalq musiqa merosi asosida yoshlarni ahloqiy estetik tarbiyasini shakllantirish» (___) deb nomlangan doktorlik dissertasiyasi, pedagogika fanlari nomzodi I.Qudratovning «Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash» mavzusidagi nomzodlik ishida, B.X.Medrimovning «Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari» nomli tadqiqot ishi, E.Fayzulayevning «Bo'lajak musiqa o'qituvchilari vositasida badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida)» deb nomlanuvchi dissertasion tadqiqotlarida ilmiy va pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotlar natijalari xalq musiqa merosi ulkan ma'naviy xazina va

shu bilan birga estetik tarbiya manbai ekanligini tasdiqlaydi. Musiqa san'atidan, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish qachon o'zining ijobiy natijalarini beradi va bu natijalar yuqori samaradorlik kasb etadi, qachonki bu noyob xazina tarkibidagi namunalarni tanlab olish va ulardan maqsadli foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari aniq ishlab chiqilsa, namunalarni tanlab olish mezonlari ishlab chiqilsa va amalda ulardan foydalanishning ilmiy, uslubiy mexanizmi, ya'ni metodologik tamoyillari yaratilsa.

Ta'kidlab o'tilgantadqiqotlar mazmunida shu jihatlar alohida ta'kidlanadi. Mazkur yo'nalishda ish olib borish uchun pedagog-o'qituvchilar o'quvchilarga xalq musiqa merosi namunalarini o'rgatish, birgalikda kuylash, g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish, suhbat, hikoya yo'li bilan tushuntirish kabilar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu o'rinda estetik tarbiya sabog'i o'quvchi-yoshlarning badiiy-estetik tafakkuri, ijtimoiy-ahloqiy va ma'naviy olamini milliy musiqa vositasida shakllantiruvchi faoliyat sifatida kasb etishi muhimdir. Xalq musiqa merosi vositasida nafosat (estetik) tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga yoshlarda oliy insoniy fazilatlarni tarkib toptirish va o'zi mansub bo'lgan xalq madaniyati, san'ati, musiqasiga, mehr-muhabbat, barqaror qiziqishni uyg'otish, musiqadagi nozik tuyg'u, kechinmalarni idrok eta oladigan madaniyatli, estetik didli inson darajasida voyaga yetkazishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Musiqa pedagogikasi va san'atshunoslik yo'nalishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish va bildirilgan fikr mulohazalarda musiqa san'atiga bo'lgan san'at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqyelik holatini ifoda etuvchi vosita, shuningdek, idrok etishning o'ziga xos shakli sifatida qaraladi. Musiqa yaratuvchi ijodkor shaxs muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy orzu-istak, muayyan sifatlarni yoritadi. Musiqa va

qo'shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ruhiy chekinmalar-xursandchilik, shirin hayol, orzu yoki aksincha g'amgin kayfiyat, tushkunlik, iztirob kabilar ifodalanadi.

Ohanglar ta'sirida inson ruhiyatida muayyan ruhiy holatlar (kechinmalar) vujudga kelib, ijobiy yoki salbiy kayfiyatlarni yuzaga chiqaradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayniqsa milliy halqona ohanglar bilan yo'g'rilgan kuy-qo'shiqlar inson ruhiyatida eng nozik, so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan hislatlarni yuzaga kelishiga ta'sir etadi. E.Fayzullayevning tadqiqot ishida bayon etilishicha qadimda olimlar musiqiy ohanglarni «alqonlar» deya e'tirof etganlar va ularning ta'sirida quyidagi uch hissiyot yuzaga kelishiga urg'u berganlar: 1. Kishiga lazzat bag'ishlovchi kuylar «alqoni mualliza» bo'lib, ular odatda go'zallikni tarannum etadi va kishiga huzur bag'ishlaydi. 2. Kishini hayolat, shirin orzular va hayoliy uylarga yetaklovchi hayoliy kuylar «alqoni muhayilla». 3. Kishi kayfiyatida g'amginlikni yuzaga keltiruvchi va lirik kechinmalarni uyg'otuvchi kuylar «alqoni infioliylik». Ko'rinadiki bu hissiyotlar mohiyatan estetik ta'sirchanlikka dahldor xususiyatlardir. Musiqa qanday hissiyotni vujudga keltirmasin, uni tinglagan kishi estetik ta'sir og'ushida bo'ladi.

Musiqiy asarlarni yaratilishida ichki omillar bilan birga tashqi omillarning ham o'ziga xos ta'sirini e'tirof etish o'rinli bo'ladi. Masalan, inson kayfiyati, tabiat manzaralari yoki ijtimoiy voqyelik ularga xos bo'lgan xususiyatlarning ohanglar yordamida ifodalanishi asosida yoritib beriladi. Bunda ohang ritmi, sur'ati, toniga alohida e'tibor qaratiladi. Musiqiy asarlar ijrosida mazkur xususiyatlarni e'tiborda tutish muhim ahamiyatga ega.

Musiqiy asar yaratilishi, ijro etilishida ichki omillar va tashqi detallar mutanosibligi musiqiy obrazlar yaratilishini ta'minlaydi. Musiqiy asardagi obrazlilikni anglash, his etish estetik ta'sirni eng muhim ko'rinishi

hisoblanadi. O'quvchilarni musiqiy asarlarni tinglash, o'rganish, kuylash jarayonida estetik ongini, madaniyatini, badiiy didini shakllantirish, o'quvchi nimalarga asosiy e'tibor qaratishi yoki bu faoliyatda uning vazifalari nimalardan iborat bo'ladi. O'tkazilgan savol-javob, mutaxassislar bilan muloqot, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, bu o'rinda quyidagicha xulosalarga kelishimizga sabab bo'ldi.

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasining dars, sinfdan tashqari badiiy havaskorlik to'garaklari va ommaviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda o'quvchilarni o'zbek xalq musiqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini, o'rganish, kuylashga ehtiyojlarini o'rganishi;

2. O'quvchilarni halq musiqasining turli janrlari, ijrochilik an'analari, uslublaridan xabardorlik darajasini aniqlash;

3. O'quvchilarning xalq musiqa namunalarini kuylash imkoniyatlari, ovoz xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash;

4. O'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, xalq musiqa merosiga munosabatlari, ovoz imkoniyatlari, iqtidorlari, ijrochilik ko'nikma va malakalariga muvofiq ular o'rganishi, tanglashi, ijro etilishi mo'ljallangan kuy-qo'shiqlari repertuarini shakllantirish;

5. O'quvchilarga xalq musiqasi namunalaridan ijro etish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, usul, vositalarni amaliyotda sinash, samarali deb topganlarini aniqlab berish.

6. Dars va darsdan tashqari faoliyatni pedagogik metodik, psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilish;

7. Mashg'ulotlarda yuqori saviyada ijro etilgan namunalarni tinglash, tahlil qilish, ko'rgazmali va texnik vositalardan unumli foydalanish qayd etilganlar ta'limiy-tarbiyaviy va tashkiliy pedagogik masalalarni muvaffaqiyatli hal etilishi musiqiy-estetik tarbiyani milliy asoslarda tashkil

etish tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish, uni zamonaviy talablarga mos ravishda mazmunan boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladiki, hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish jaranida barcha san'at turlari qatorida musiqa ta'limi va tarbiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanishga qaratilgan intinsif ilmiy izlanishlar ko'lami ortib bormoqda. Ushbu izlanishlar tarkibida xalq musiqa ijodiyotidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining «musiqa madaniyati» fanini o'qitish jarayonida, hamda sinfdan tashqari badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyatida, madaniy-ma'rifiy tadbirlar badiiy qismi dasturlarida xalq musiqa merosiga oid kuy-qo'shiqlarga keng o'rin berish, ularni estetik ta'sir imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishning o'ziga xos pedagogik va metodik tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu muammoni ijobiy hal qilishda musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha dars va darsdan tashqari faoliyatni uzviy aloqadorligini ta'minlash va xalq musiqa merosiga nisbatan o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish, ongli munosabatni shakllantirish, bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xalq musiqasi bo'yicha musiqiy-nazariy va amaliy ijrochilik bo'yicha ko'nikma va malakalarini puxta egallashlariga quyidagi maqsadga erishish imkonini beradi.

1.2. Maktab muusiqa ta'limida xalq musiqa merosidan

o'quvchilarnii estetik tarbiyalashda foydalanish muammolari

Biz mazkur tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida Samarqand viloyatining bir qator tumanlari va Samarqand shahridagi ko'plab umumta'lim maktablarida «musiqa madaniyati» darslarini, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy, ahloqiy va estetik tarbiyalash asosiy maqsad

hisoblanadigan sinfdan tashqari yo'lga qo'yilgan badiiy havaskorlik to'garaklari, ma'daniy-ma'rifiy va ommaviy bayram tadbirlarni o'tkazilish holati, tashkiliy tuzilishi, tizimliliigi, aniq mavzu, maqsadga yo'naltirilganligi, badiiy saviyasi va ularga o'quvchilarni jalb etilish holati va tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib milliy musiqiy merosga e'tibor va munosabatni, xalq musiqasining ommaviy mumtoz va maqom namunalari orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashni shakllantirish amaliyotini kuzatdik va taxlil qildik.

Xulosalarimizga ko'ra shunga amin bo'ldikki, xalq musiqa merosining tarbiyaviy ta'sirchanlik imkoniyatlaridan yoshlarni estetik tarbiyasida tarbiyalanish borasidagi ishlarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Bu borada o'z yechimini kutayotgan jiddiy kamchiliklar, pedagogik muammolar mavjud. Kuzatilgan kamchiliklar va muammolarni quyidagi holatlarda namoyon bo'layotganligini ta'kidlash o'rinni bo'ladi:

1. Xalq musiqa merosiga mansub kuy-qo'shiqlar xalq musiqasining ommaviy janrlari, shuningdek mumtoz va maqom ashulalari, mahalliy musiqiy uslublarga xos aytimlarni xususan maktab musiqa ta'limi va tarbiyasi amaliyotiga qo'llash orqali estetik tarbiyalashning tashkiliy, uslubiy ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqilmaganligi va hozirda ta'lim amaliyotda faoliyat olib borayotgan musiqa o'qituvchilarini mazkur faoliyatga tayyor emasligi;

2. Xalq musiqa merosidagi an'anaviy shakldagi janrlarga xos aytimlarni ijrochilik uslublari, an'analari, kim tomonidan, qay holatda aytilishi, mazmuni, qaysi ijrochilik uslubiga mansubligi, mashhur ijrochilari, shundan so'ng musiqiy asar sifatidagi musiqiy-nazariy tahlili bayon qilingan manbalar, maxsus to'plamlarni yo'qligi, ayrim borlarini ham yetishmasligi;

3. Xalq musiqa merosiga mansub nisbatan murakkab ijrochilik turlariga tegishli namunalarni elektron yozuvlari (fonoteka, disklar, magnit

lentalari) bilan umumta'lim maktablarini talab darajasida (yoki umuman) ta'minlanmagani;

4. Aksariyat ko'pchilik musiqa o'qituvchilarining xalq musiqa namunalarini o'quvchilar e'tiborini tortadigan darajada, yuqori badiiy saviyada ijro etish (cholg'u asbobida chalish, kuylash) mahoratiga ega emasligi, yoxud kasbiy tayyorgarligini qoniqarli emasligi;

5. Ko'plab umumta'lim maktablarida hali hanuz zarur moddiy texnik bazani yaratilmaganligi, maxsus musiqa xonalari ajratilmaganligi, jixozlanmaganligi, kerakli cholg'u asboblari, o'quv-uslubiy adabiyotlar, texnik, ko'rgazmali vositalarning yetishmasligi yoxud yo'qligi

Bundayin kamchiliklar va muammolarning mavjudligi umumta'lim maktablarida musiqa darslariga, o'quvchi-yoshlarni har tomonlama uyg'un rivojlantirishida alohida ahamiyatga molik estetik tarbiyalashga e'tiiborsizlik, loqayd munosabatda bo'lishlikning, Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan diqqat-e'tiborning mohiyatini his etmaslik natijasidir desak aslo xato bo'lmaydi.

Sharqning ko'pgina xalqlari kabi o'zbeklar o'tmish ajdodining musiqa san'atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridayoq vujudga kelgan va asrlar davomida takomillasha borib ijrochilik madaniyatida milliy qo'shiqlar hamda vokal va cholg'u yo'llarida yuksak natijalarga erishilgan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda xalq musiqa ijodi mavzu diapozoni juda keng, xilma-xil bo'lib, ular tomonidan insoniyat hayotining deyarli barcha tomonlari o'z aksini topadi. Yana ham aniqroq qilib aytganda xalq qo'shiq kuylari va janrlari hayotning o'zi kabi juda ko'p va xilma-xildir. Bugungi kunda xalq qo'shiqlari janr xususiyatiga ko'ra qo'shiq, ashula, katta ashula, alla, yalla, lapar, mumtoz va maqom ashulalari singari tarmoqlarda namoyon bo'lsa, bolalar xalq qo'shiqlari musiqa ijodiyotining yana bir sohasi sifatida o'yinlar, sanashlar, tegishmalar, tez aytishmalar, turli xil taqlidiy tovushlar va

yasamalar, topishmoqlar kabi turlarda mujassamlashadi. Kattalar va bolalar xalq qo'shiqlari mavzusiga ko'ra maishiy, diniy, bayram, harbiy, mehnat, yil fasllari, tabiat, o'simliklar va hayvonlarga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa ulardan musiqa pedagogikasining barcha turlari va sohalari hamda ta'limning barcha bo'g'inlarida foydalanish imkonini beradi.

Xalq qo'shiqlari faqatgina an'anaviy ijrochilik namunalari bo'lib qolmay, ayni paytda xalq o'rtasida keng tarqalgan, ijtimoiy siyosiy, mafkuraviy ham ma'naviy voqyelikka mansub ijod va san'at asarlari deb baholanmog'i zarur. Ayrim ilmiy va ommaviy manbalarda xalq musiqa merosi deganda uni tor ma'noda talqin qilish, ya'ni uni faqatgina folklor qo'shiqlaridan iborat deb tushunish holati mavjud. Bu esa bizning nazarimizda unchalik ham to'g'ri emas. Chunki, hozirgi davrda ham talantli musiqachilar, cholg'u sozandalar, xalq hofizlari, xonandalar tomonidan yaratilayotgan xalqona (xalq ohanglari ta'sirida, ulardan ilhomlanib) kuy-qo'shiqlarni qanday ta'riflash mumkin. Zamonaviy qo'shiqlarning aksariyat ko'pchiligi xalq muusiqasida mavjud bo'lgan ohanglarga tayanib yozilayotgannligi haqiqat. Aslida xalq musiqa merosidagi hozirgi kunda biz folklor yo'nalishiga mansub deb ta'riflayotgan namunalar ham xuddiy shu tarzda yaratilganligini inkor etib bo'lmaydi.

Xalq musiqa merosiga bir tomonlama yondashish va ta'lim sohasida ham o'zining ta'sirini ko'rsatayotganligi ko'rinmoqda.

Biz o'z tadqiqotimiz mavzusi bo'yicha izlanar ekanmiz, biz tomonimizdan kuzatilgan kamchilik va muammolarga o'z vaqtida taniqli bastakor va pedagog-olim R.Tursunov ham o'z fikrlarini bildirib o'tganligiga guvoh bo'ldik. «Ma'rifat» gazetasining 2006 yil, aprel, 28-sonida bosilgan maqolasida u shunday yozadi; - «musiqa ta'limidagi yana bir muammo mavjud, u ham bo'lsa umumta'lim va musiqa maktablarining o'quv

dasturlaridagi xalq kuy-qo'shiqlari, mumtoz va maqom musiqasi kiritilgan bo'lsa-da, ular bo'yicha zarur fonotekalar bilan ta'minlanmaganidir».

Eng jiddiy muammolardan yana biri bu ko'pchilik maktablarda musiqa darslarini mutaxassis bo'lmagan yoki san'at kollejarini, institutlarni «tor ixtisoslik» bo'yicha tomomlagan mutaxassislar (nopedagog) tomonidan o'tilayotganligidir.

Hozirgi kunda ta'lim sifatini takomillashtirib borish, o'quv dasturlari, rejalar, darsliklarni yanada mukammallashtirish ustida qizg'in ish borilayotgan ekan xalq musiqasi merosiga, xususan, uning eng ommaviy janri bo'lmish qo'shiqchilik bo'yicha o'quv materiallari, ularga ajratiladigan soatlar xajmini ko'paytirish zarur.

Umumta'lim maktablari musiqa darslarini o'qitishda ko'pchilik o'qituvchilarni o'z bilganlaricha ish tutishayotganliklari, dars va darsdan tashqari o'tiladigan to'garak mashg'ulotlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda o'quvchilarni xoxish istagiga ko'ra qo'shiqlar tanlash oqibatida yengil-yelpi, mazmunan va badiiy sayoz, chet-el musiqalariga taqlidan yaratilayotgan qo'shiqlarga ko'proq o'rin berilayotganligini qo'rish mumkin, bayram, ko'rik-tanlovlarda milliy cholg'ulardan tashkil topgan ansambllar bilan qo'shiq kuylash esa «yo'qolib borayapti» desak yanglishmaymiz. O'quvchi-yoshlarnig hozirda juda tezlik bilan ommalashib borayotgan «kompyuterlashgan» musiqa cholg'ularida kuylashga havaslari kuchli. Shunday bo'lgach, milliy musiqamizga,, mumtoz va maqomlarimizga munosabat haqida qanday fikr bildirish mumkin?.

Fikrlarimizni Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlari bilan izohlashni o'rinli deb topdik: «Biz uchun ahloqiy jihatdan noma'qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan, ya'ni, jamoatchilik e'tiboriga haavola qilinayotgan san'atning hych qanday mezonlariga to'g'ri kelmaydigan «san'at»

ko'rinishlarini bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim va ayni shu asosda bunday «moda» qo'shiqlarni o'ta havfli holat ekanini anglashimiz zarur»1/.¹

Biz kuzatilgan holatlarni tahlil qilar ekanmiz xalq musiqa merosi, uning tarkibidagi eng ommaviy, hozirjavob va ta'sirchan namunalarini musiqa ta'limiga tadbiq etish, o'quvchi-yoshlarni estetik va ma'naviy tarbiyalashda ulardan imkon qadar unumli foydalanishning ilmiy, pedagogik jihatlarini kengroq o'rganish amaliy tajribalar o'tkazish orqali bu jarayonni o'ziga xos metodik tizimini ishlab chiqishga harakat qildik.

Halq musiqa merosida qo'shiqchilik san'ati g'oyat muhim sanaladi. Buning sabablarini quyidagilar bilan izohlash mumkin.

- qo'shiq boshqa san'at turlari kabi voqyelikning badiiy estetik ifodasidir. Chunki har qanday san'at asarlarida voqyelikning (hayotning) biror tomoni, ko'rinishini estetik va ma'naviy jihatdan baholash yaqqol yoki yashirin holda mavjud bo'ladi.

- qo'shiqlar o'z tabiatiga ko'ra hayotiy emosionaldir. Shuning uchun u inson ichki hissiyotiga ta'sir etib, unda estetik xuzur, zavqlanishni va uni muayyan baholash taassurotini paydo qiladi.

- hozirgi kunda san'at bilan, xususan qo'shiq san'ati bilan deyarli har kuni muloqotda bo'lmaydigan kishini tasavvur etib bo'lmaydi.

Bunda radio, televideniyaning xizmati cheksizdir. Lekin, qo'shiqni muayyan maqsad va yo'naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida tinglash, tahlil qilish, badiiy g'oyaviy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish o'rtasida, katta farq bor. Mana shu farq uning ijobiy tomonda bo'lishi mashg'ulotlarni tashkil etilishi, o'qituvchi va san'at

1. ¹ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. – Toshkent, ma'naviyat, 2008 y. 143 bet.

to'garaklari rahbarlarining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Dars, darsdan tashqari to'garaklar, dastalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar ishtirokchilari oddiy tinglovchilarga nisbatan ko'proq estetik ta'sirda bo'ladilar. Bu hol mutlaqo tabiiydir. Chunki, dars, to'garak, dastalar, manaviy-ma'rifiy tadbirlar qatnashchilari ijodiy jarayonda faol ishtirok etadilar. Dars jarayonida asarlarni tinglash davomida u haqda muxtasar ma'lumotlar beriladi, badiiy, nazariy tahlil qilinadi. To'garaklarda maxsus mashqlar olib boriladi, tadbirlarda esa musiqa tadbir mavzusi va mazmunini ochishdagi roli aniqroq, teranroq his qilinishiga yordamlashadi.

Musiqa, aynan qo'shiqlarning o'quvchilar ongi, irodasi, sezgisi, hissiy, musiqiy idrokiga ta'siri murakkab psixologik jarayon bo'lib, buni uni tuzilishidagi ko'p jihatlikka, ya'ni kuy, matn, ijrochilik bilan bog'liq holda izohlash mumkin. Xalq qo'shiqlarida xalqona ohanglarni o'ziga xosligi matn mazmuniga g'oyat moyilligi namoyon bo'ladi. She'riy asar sifatidagi qo'shiqning matni va ritmi kuyiga tabiiy birikuvi orqali inson hissiyotiga emosional ta'sir etadi.

Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni estetik tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lib, bunga yetarli e'tibor bermaslik musiqa ta'limidagi jiddiy muammolardan hisoblanadi. Asar g'oyaviy-badiiy mazmunida ifoda etgan kayfiyat, hayotiy voqeylik, lirik kechinma, tabiat go'zalligi yoki umuminsoniy tuyg'ular faqatgina hissiyotga esmas, balki ong va tafakkurga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tinglovchi o'zini ana shu voqeylik, kechinmalar og'ushida sezadi, unda hamdardlik tuyg'usi uyg'onadi, mushohada qilish hissini vujudga keltiradi. O'qituvchi, tarbiyachi mana shunga erishgan taqdirdagina musiqa ta'limi va tarbiyasidan kutilgan natijaga erishish mumkin. Musiqa ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi har qanday tarbiyachi murabbiy, pedagogik buni unutmazligi lozim.

Bizga ma'lumki, maktabdagi musiqa ta'limi o'quvchilarni musiqaning biror yo'nalishi bo'yicha chuqur tayyorlashni ko'zda tutmaydi. Lekin, o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ularga biror musiqa cholg'usini o'rgatish, nazariy savodxonligini har jihatdan puxta egallashiga erishishdan ko'ra qiyin, murakkab va mas'uliyatlidir. Musiqa ta'limi o'quvchilarda tinglash madaniyatini, musiqani idrok qilish, his etish, g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, uni «boshdan kechira bilish» darajasida musiqa ongi, tafakkurini rivojlantirish, musiqiy didini o'stirishi lozim. Yuksak saviyadagi ijod namunasi bilan mazmunan sayoz asarni farqlash, unga o'z munosabatini bildira oladigan shaxsni tarbiyalash, musiqa ta'limining asosiy vazifalaridan bo'lmog'i kerak.

O'rganiladigan, tinglanadigan musiqa asari xalq merosi, zamonaviy yo'nalishlarda bo'lishidan qat'iy nazar ular o'quvchilarda yuksak ma'naviy sifatni: vatanparvarlik, fuqarolik, ona yurtga, ona tabiatga, insonlarga, xalqiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otishi zarur. Ma'lum bir ko'rik-tanlovlarga, madaniy-musiqiy, ma'rifiy tadbirlar, konsertlar ijrochilariga bu o'rinda katta hissiy-ma'naviy vazifa, mas'uliyat yuklanadi. Ular imkoni boricha o'zlari o'rganib, ijro etayotgan musiqiy asarning nafosatini, ma'nosi va mohiyatini tinglovchilarga yetkazishi, musiqa, she'riyat asari sifatida barcha ko'rinishlari birligini yaratishlari, ya'ni tinglovchilarning ma'naviy va estetik dunyoqarashlariga hissiy emosional ta'sirini ta'minlashlari zarur.

Xalq musiqa merosi namunalarida xalq donishmandligi, xayot falsafasi, ruhiyati xalq pedagogikasining ilg'or g'oyalari go'zal qiyofada uyg'unlashadi.

Ko'rinib turibdiki, umumta'lim maktablarida o'tiladigan musiqa darslari, tashkil qilinadigan musiqiy badiiy havaskorlik to'garaklari va madaniy ma'rifiy (musiqiy) tadbirlarning ijodiy imkoniyatlari keng va serqirra bo'lib, ular vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashning yaxlit maqsad va

vazifalarini amalga oshirish mumkin. Shunday ekan ushbu vazifalarni amalga oshirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan tamoyillarini belgilash, metodik tizimini ishlab chiqish va shu asosda ish olib borish, erishilgan natijalarni badiiy, ilmiy jihatdan sinchkovlik bilan tahlil qilib, ularni ommalashtirish lozim. Ushbu fikrlarga tayangan holda umumta'lim maktablarida xalq musiqa merosidan foydalangan holda milliy musiqiy-estetik tarbiyani yo'lga qo'yish muammosining nazariy jihatdan tadqiq etishda quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlab o'tishni joiz deb bildik.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni xalq musiqa merosi namunalari orqali estetik tarbiyalash bu borada mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etilishini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida muammoni ilmiy va maxsus tadqiq etilishini, tadqiqot natijalari esa mavjud holatning nazariy xulosalarini umumlashtirish natijasida kuzatilgan kamchiliklar, muammolarni bir tizimga solish, amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar mazmunini belgilash imkonini beradi. Shunga asosan biz tadqiqotning muammosi bo'yicha kuzatilgan kamchilik va muammolarni aniqlash va uni bartaraf etish yo'llarini, chora-tadbirlar rejalashni ishlab chiqish eng to'g'ri yo'l ekanligiga ishonch hosil qildik.

2. Umumta'lim maktablarida xalq musiqa merosidan o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyasida foydalanishda yangicha, o'ziga xos ish shakli, usul, vositalarni aniqlash, ularni amaliy tajribalar o'tkazish orqali sinab ko'rish musiqiy ta'limning milliy asoslarini mustaxkamlashda qo'l keladi.

3. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qituvchilari xalq musiqasi namunalari bilan ishlashda o'quvchilarda birinchi navbatda xalq musiqasi, uning turli janrlari, mavzulardagi namunalari qiziqish va ijodiy munosabatni shakllantirish olishi kerak. Shundan so'ng ularning iqtidorlarini, imkoniyatlarini chuqur o'rganishi, keyin uning natijalariga tayanib o'z vazifalarini belgilab olishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz o'z tajriba-kuzatuvlarimizda shu tariqa ish tutdik va natijalar uning to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

I. Bob bo'yicha xulosalar

O'zbek xalq musiqa merosiga mansub kuy-qo'shiqlar, dostonchilik, tarixiy, diniy, mavsum-marosim aytimlari va ular ta'sirida, ulardan ilhomlanib yaratilayotgan xalqchil asarlar o'zbek xalqi va u bilan yonma-yon yashab kelayotgan xalqlarning ijtimoy-tarixiy taraqqiyoti, maishiy turmush tarzi, pedagogik qarashlari, etnopsixologik xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan ulkan ma'naviy boylik va estetik tarbiya vositasidir. Chunki, ularning mazmunida falsafiy, maishiy, etnopsixologik g'oyalar bilan birga pedagogik g'oyalr ham o'z ifodasini topgandir.

Tadqiqot ustidagi ilmiy amaliy izlanishlar, xalq musiqa ijodiyoti bilimdonlari, pedagog-olimlar va musiqa o'qituvchilari bilan o'tkazilgan muloqotlar jarayonida xalq musiqa merosiga mansub asarlar o'zida millat ruhiga mos tuyg'ular, ong, xarakter kabi pedagogik xususiyatlarni shakllantirishda keng imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xalq qo'shiqlari va an'anaviy ijrochilik namunalarining qayd etib o'tilgan tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlari musiqiy-estetik tarbiyani mazmunan va mohiyatan hozirgi kun talablari darajasida shakllantirish imkonini beradi. Bunga erishish uchun esa ushbu jarayonni tashkil etishning o'ziga xos pedagogik va metodik tizimini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan bizning tadqiqotimiz obykti bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni ma'naviy, ahloqiy, estetik va g'oyaviy tarbiyalashda xalq musiqa merosidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, zarur pedagogik shartg'shroitlarni barpo etish va eng muhimi hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilarini mazkur yo'nalishida maxsus malakaviy tayyorgarlikdan o'tkazish zurr.

Umumta'lim maktablarida o'tiladigan musiqa madaniyati darslari, darsdan tashqari faoliyatdagi badiiy havaskorlik to'garaklari va madaniy-marifiy tadbirlarda xalq musiqa merosi namunalariga keng o'rin berish va xalq musiqa merosi targ'ibotini kuchaytirish lozim bo'ladi.

II.BOB: Xalq musiqa merosi vositasida estetik tarbiyani tashkil etishning pedagogik omillari.

2.1. Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanishga qo'yiladigan pedagogik talablar.

O'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati va teran ildizlari, an'alariga ega musiqa san'ati o'zida xalq ruhiyatini to'laqonli aks ettirish, unga xos bo'lgan turmush tarzi, hayotiy maqsad-intilishlar hayotiy falsafasini ifodalay olishi kabi imkoniyatlari bilan ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy, axloqiy va estetik tarbiyani tashkil etishning samarali vositalaridan sanaladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida uning g'oyaviy, ahloqiy, madaniy sifatlari muhim rol o'ynaydi. Bu sifatlari ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, estetik tarbiya bilan shug'ullanuvchi pedagoglar, tarbiyachi-murabbiylar bu ishni umumlashgan holatda olib borishlari kerakligini unutmasliklari lozim.

Ayni vaqtda e'tirof etish joizki, xalq musiqa merosiga mansub barcha kuy-qo'shiqlar estetik tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham muayyan bosqichda ta'lim olayotgan bolalar (maktabgacha yoshda, boshlang'ich sinf, o'smirlar, talabalar) ning individual fiziologik, psixologik imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, estetik saviyalari, mahalliy (oilalar, mahalla) muhim va an'analarni qat'iy tarzda e'tiborga olgan holda estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llaniladigan xalq kuy qo'shiqlarining mazmuni, o'quvchilar yoshi, dunyoqarashi va ijro imkoniyatlariga muvofiq tarzda muayyan pedagogik talablar asosida tanlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalqining turli mavzulardagi kuy qo'shiqlari vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda qo'llaniladigan namunalarni tanlab

olish mezonlari nimalarga, qanday talablarga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin? Xalqimizning badiiy-musiqiy merosida yaxshi kuy-qo'shiqlar juda ko'p. Ular ko'p asrlardan buyon yillar sinovidan o'tib, turli avlod vakillarining badiiy, madaniy-ma'naviy mulki sifatida yashab kelmoqda.

Xalq musiqa ijodida eng ommaviy xisoblangan qo'shiq san'ati haqida fikr yuritganda uning tarkibiy tuzilishini yaxshi o'rganish juda muhimdir. Qo'shiqning estetik ta'sir kuchi va mazmuni shu qismlarning har birida, ayni paytda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlit xoldagi ta'siri bilan belgilanadi.

Shu ma'noda qo'shiqning musiqiy ohangi uning eng muhim emosional ta'sirchan qismi hisoblanadi. Ohang faqat lirik, zavqli tuyg'ular uyg'otmay, u g'amgin, achchiq iztirobli, mungli kayfiyat uyg'otishi ham mumkin. Ohang kuyiga qo'shiq matni mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqib qo'shiq matni bilan uning ohangini munosib, muvofiqligini bosh mezon sifatida e'tirof etish mumkin.

Qo'shiqni ijrosi – ovoz jozibadorligi, musiqiyligi tinglovchini o'ziga jalb etishida muhim shartlardandir. Qo'shiq ijrosida xonandani sohir ovozi, musiqaviy qobiliyati, ijro mahorati, cholg'ular jo'rnavozligi kabilar uyg'unligi orqali estetik tarbiya vositasiga aylanadi, uning ta'sirchanlik xususiyatlari oshadi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida, sinfdan tashqari to'garaklar faoliyatida, shuningdek turli madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida xalq kuy qo'shiqlaridagi foydalanish ishlarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar kuy-qo'shiqlarni tinglashi, ular haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishi, mahoratli ijrochilar ijrosini kuzatishlari, qo'shiq mazmunini chin dildan his etish, tushunishi lozim. Ana shundagina qo'shiqdagi g'oyaviy-badiiy fikrlar, uylar, kechinmalar, kechinmalari, idrok etuvchining hayolida, ongida, hissiyotida

qayta ishlanib, uning o'z hayot tajribasiga qat'iy qarashi, estetik idealiga aylanadi, unda yangi insoniy tuyg'u va munosabatlarni vujudga keltiradi.

Shunga ko'ra bizningcha umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslari, to'garaklar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda uquvchi-yoshlarga o'rgatish uchun tanlab olinadigan xalq kuy-qo'shiqariga quyidagi mezonlar asosida yondashish to'g'ri bo'ladi:

1. Musiqiy asar (folklor, mumtoz maqom shuningdek xalqona ohangga yaratilgan zamonaviy) badiiy emosional ta'sirchanlikka ega bo'lishi:

2. Ijtimoiy voqyelikni badiiy jihatdan mazmunli va ta'sirchan ifoda etishshi;

3. O'quvchilar ovoz xususiyatlariga, (ovoz diapozoni, kuchi) kuylash imkoniyatlariga mos kelishi;

4. Matn mazmunida yuksak ideallar muayyan voqyelik, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, diniy, xalq xayotining ma'naviy ko'rinishlari mujassamlashganligi;

5. Asarlarni tanlash va o'rgatish muayyan pedagogik maqsad, pedagogik aprotasiyadan o'tgan metodika asosida olib borilishi lozim. Bu o'rinda xalq kuy-qo'shiqlarini turlari janr xususiyatlarini e'tiborga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalq qo'shiqlarini turli uslub va janrlari o'ziga xos ijrochilik yo'li, usuli, xarakteri, kompozision qurilishi, nazmiy xususiyatlariga (she'riy matnlarning ham janriy xususiyatlari ko'zda tutilmoqda) ega bo'lib, ular o'ziga xos talab va yondashuvlarni taqozo etadi. Xalq qo'shiqlarini salmoqli turlari bo'lishi termalar, yor-yorlar, dostonchilik qo'shiqlari, nasihat qo'shiqlar, diniy mazmundagi qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar, harbiy-qahramonlik qo'shiqlar, satira-yumor, tanqidiy qo'shiqlar, klassik shoirlar g'azallari bilan aytiluvchi mumtoz qo'shiqlar barchasi xalq qo'shiqlari mazmunida talqin etiladi, umumlashadi.

6. Yana bir muhim jihatlar halq qo'shiqlarini tanlab olish va ulardan foydalanishdaa ularni qaysi mahallaviy uslubga xosligi tegishliligini

e'tiborda tutish kerakligidir. Agar bu jihat e'tiborga olinsa qo'shiqning badiiy san'at sifatida badiiy-g'oyaviy mazmuni va qiymatiga ko'ra yetishish va estetik tarbiyadan kutilgan natijani bermasligi mumkin. Mahalliy uslubdagi qo'shiqlar ijrochilik an'analari, mahalliy xalq urf-odatlarini, tili (shevasi) kiyim-kechaklari, cholg'ulari va kuylash, raqsga tushish (raqs jo'rli) kabi jihatlari bilan ajralib turadi va ular shu xususiyatlari bilan o'ziga xos ko'rinish, rang-barangligini namoyon etadi.

Xalq qo'shiqlarini ijrochilik usullari va aytilish shart-sharoitlariga ko'ra 2 ta katta guruhga bo'linadi.

Mavsum va marosim qo'shiqlari:

Bu qo'shiqlar turli yil fasllari, bayramlar, to'ylar, mavzuli tadbirlar bilan bog'liq tadbirlarda ijro etib kelingan. Bu qo'shiqlar sirasiga yor-yorlar, o'lanlar, allalar, sana, bayramlar bilan bog'liq qo'shiqlar kiradi.

Turli mavzularda har doim ijro etish mumkin bo'lgan qo'shiqlar. Bunga termalar, lapar, yallalar, katta ashula, qo'shiqlar kiradi.

Xalq qo'shiqlari tanlab olishda yana bir jihatga e'tiborga olinishini alohida ta'kidlab o'tishni istardik:

- Qiziqarli va mazmundor repertuar yaratish, unga o'zbek xalqining turli davr sinovlaridan o'tib kelayotgan qo'shiqlardan eng yaxshi namunalarni kiritish:

- Mehnat, do'stlik, insonparvarlik, ozodlikka chorlovchi, uni madh etuvchi, baynalminallikni tarannum etuvchi namunalarni kiritish:

- Sevgi-vafo, do'stlik, pand-nasihatchilik mavzusidagi qo'shiqlarga ham o'rni bilan e'tibor qaratish;

- Xalq tarixining muhim bosqichlari bilan bog'liq qo'shiqlarga ham o'rin ajratish;

- Urushga qarshi g'oyalar bilan sug'orilgan asarlar.

- Axloqiy poklik, halollik, sahiylik, oliy janoblik, imon e'tiqodga chorlovchi qo'shiqlar ham o'rganish;

- Ona tabiatga mehr-muhabbatni oshiruvchi, uning go'zalligini kuylovchi qo'shiqlarni tanlab olish;

- Umum ishiga halal beradigan byurokratik, loqaydlik, nopoklik, baxillik, xasadgo'ylikni fosh etuvchi tanqidiy qo'shiqlarni dasturga kiritish;

- Hayotimizdan keng o'rin olgan, ommaviy tarzda nishonlanadigan xalq bayramlari Navro'z, Mustaqillik kuni, Xotin-qizlar bayrami va boshqa qadrlil sanalar bilan bog'liq qo'shiqlarni ham o'rganish va tayyorlab qo'yish.

- Qardosh xalqlar va kezi kelganda ijro etish uchun chet-el xalqlari qo'shiqlaridan ham namunalarni nota yozuvi bilan topib o'rganishni rejalashtirish;

- Ahloqiy poklik, halollik, sahiylik, oliyjanoblik, iymon-e'tiqodga chorlovchi qo'shiqlar ham o'rganish:

- ona tabiatga bo'lgan muhabbatni oshiruvchi, uning go'zalligini kuylovchi qo'shiqlarni tanlab olish:

- umumiy ishiga halal beradigan byurokratik, loqaydlik, nopoklik, baxillik, xasadgo'ylikni fosh etuvchi tanqidiy xajviy qo'shiqlarni dasturga kiritish:

- hayotimizdan keng o'rin olgan, ommaviy tarzda nishonlanadigan xalq bayramlari Navro'z, Mustaqillik kuni, konstitusiy kuni, Xotin-qizlar bayrami va boshqa qadrlil sanalar bilan bog'liq qo'shiqlarni ham o'rganish va tayyorlab qo'yish:

- qardosh xalqlar va kezi kelganda ijro etish uchun chet-el xalqlari qo'shiqlaridan ham namunalarni nota yozuvi bilan natib o'rganishni rejalashtirish.

- repertuarlarga yakkaxonlikda ijro etishga va ko'pchilik (ansambl) bo'lib, xor bo'lib, ijro etishga asarlarni kiritish va turli tadbirlarga olib chiqib:

Xalq qo'shiqlarini turli bayram, tadbirlar, konsert dasturlariga va asosan dars jarayonidagi yil va chorak mavzulariga mos namunalarini tanlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'quvchilarga qo'shiq o'rgatish, o'quvchilarda nihoyatda ehtiyotkorlik va mas'uliyat bila ish yuritishni talab qiladi. Shunday ish tutilgan taqdirda musiqa o'qituvchilari va murabbiylar zimmalaridagi katta va oliyjanob, musiqa ta'limi tizimi oldiga qo'yilayotgan dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli ado etgan bo'ladilar. Shu o'rinda musiqa darslarida o'quvchilarni xalq musiqa merosiga oid namunalar bilan tanishtirib borishda repertuarlarni sinflar kesimida shakllantirishda quyidagi mezonlarga tayanib ish tutish maqsadga muvofiq bo'lishi bizning amaliyotimizda kuzatildi.

1. Tinglash kuylash uchun tanlanadigan asarlar xar bir sinf uchun taqdim etishgan dastur talablariga ko'ra o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalari mezonlariga mosligia rioya qilish

2. o'quv dasturi va Davlat talimi standartiga belgilangan meyorlardan chiqib ketmaslik

3. Xar sinfnig yil va chorak mavzularidan kelib chiqish buida o'quvchilarning yoshi , imkoniyatlari, mavjud shart-sharoitlari xisobga olish:

4. Asarlarni shakl va mazmun mukammalligiga, ulardan madaniy,ommavaiy tadbirlar,ko'rik-tanlovlarva konserttadbirlarida foydalanish imkoniyatlarini xam e'tiborda tutish:

5. Musiqiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda fanlararo bog'liqlik va aloqadorlik xususiyatlaridan ustalik bilan foydalanish.

Mazkur talab va tamoyillarga ko'ra ish tutish natijasida ijobiy natijalarga erishish mumkinligi biz tomonimizdan olib borilgan amaliy tajribalar

davomida to'la sinovdan o'tkazildi erishilgan natijalar orqali o'z tasdig'ini topdi .

2.2.Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish mazmuni.

O'zbek xalqining og'zaki an'analarida uzoq davrlardan bizgacha yetib kelgan musiqa merosi boy an'ana va ijrochilik uslublariga ega bo'lib, ular asosan turtta mahalliy-musiqiy uslubga tasnif qilinadi.

Musiqa ilmiga oid ilmiy tadqiqotlarda bayon etilishiga ko'ra musiqiy merosga mansub kuy-qo'shiqlarning ohang va ritmlari bobida shakllangan ijro yo'llari o'ziga xos milliylik xususiyatlariga ega bo'lib, ular o'z asnosida xalqning muayyan xududiy hayot tarzi, urf-odat, marosim tadbirlari mehnati va boshqa ko'rinishlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Xalq musiqa merosi namunalarini to'plash, notaga olish, uning nazariy va amaliy ijrochilik uslublarini adabiy va musiqiy asar sifatidagi badiiylilik xususiyatlarini o'rganish borasida folklorshunoslik (adabiyot) va san'atshunoslik sohasida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar qilingan bo'lsada, ularni umumta'lim maktablarining o'quv amaliyotiga tadbiq etish orqali o'quvchi yoshlarni badiiy-g'oyaviy, axloqiy estetik va ma'naviy tarbiyalashda foydalanish borasidagi ishlarni yetarlicha deb bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan biz o'zimizning ilmiy-tadqiqotimiz mazmunida umumta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" darslarida, darsdan tashqari musiqiy to'garaklar faoliyatida o'zbek xalq musiqa merosi namunalarini o'rganishning samarali shakl, usul va vositalarini aniqlash hamda mohiyatini yoritib berishga harakat qildik.

Milliy musiqiy meros vositasida o'quvchilarni estetik madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakl va usullari umumta'lim maktablarining

birinchi yettinchi musiqa darslarida shu yo'nalishda tashkil etiladigan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni ifoda etadi.

Mazkur faoliyatning samaradorligini aniqlashga harakat qilar ekanmiz tadqiqotimizning ilmiy farazi, maqsad va vazialariga ko'ra mumkin qadar ko'proq tarbiyaviylik xususiyatiga ega bo'lgan, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy olami, dunyoqarashi, ruhiyatigga mos quvnoq, sho'x, harakatli o'yinlar bilan bog'liq ijro etiladigan namunalari, yuqori sinflarda esa ularni musiqiy tafakkuri, ijrochilik imkoniyatlariga ko'ra murakkabroq tizim ishidagi mumtoz namunalarga ham e'tibor qaratdik. Shuning bois amaliy faoliyat uchun repertuar tanlashda o'quvchilar yoshi (sinflar), imkoniyatlari va o'z o'rnida fan dasturlari talablari ham inobatga olindi. Asarlarni tanlashda juda ko'plab folklor jamoalari, ashula va raqs ansambllari, hozirda keng urf bo'lib borayotgan xalq qo'shiqlarini zamonaviy estrada yo'liga moslab ijro etilayotgan namunalari, xalqona ohangda yaratilayotgan bastakorlar ijodiga murojaat qildik, ko'zzdan kechirdik, ularning xalq qalbiga yo'l topgan asarlarining ijrochilik an'alariga qay darajada muvofiqligi, badiiy yetukligi, bolalar boyligi "zamonaviylashgan" variantlarda o'zining badiiy xususiyatlarini ijobiy va salbiy tomonga bo'lgan o'zgarishlarini diqqat bilan o'rgandik.

Asarlarni tanlashda ularni darsda, badiiy havaskorlik to'garagi, dastalar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ijro etilishini ham albatta hisobga oldik.

Respublikamizda el hurmat-e'tiboriga tushgan ko'plab ijodiy jamoalar. Masalan mashxur folklor ansambllaridan "Chavqi", "**Beshqarsak**", "**Gashtak**", "**Zebomxon**", "**Orazibon**", "**Lazgi**", "**Boysun**" kabi folklor etnografik ansambllarini respublikamizda juda ko'p vaqtdan beri o'z mavqeyini yo'qotmay xalqning e'tiboridan tushmay kelayotganligining boisi, bizningcha ularning har bir qo'shiq yoki raqsni o'sha hududga xos badiiy ijrochilik xususiyatlari, an'alarini, liboslari, raqs harakatlari va shevaga xos

xususiyatlarini qunt bilan o'rganib, ularga sayqal berib, milliy ruh va koloritni mujassam etgan holda tomonshabinlarga taqdim etayotganliklaridadir. Zamonaviy estrada ansambllarimizdan "Yalla", "Surxon", "Nola", "Sarbon" kabi guruhlar, M.Nomozov, Hosila Raximova, Farxod Saidov, Adxam Soliyev, Alijon Isoqov, Lola Axmedova, Xulkar Abdullayeva kabi xonandalarning ham xalqimiz xurmati va olqishiga sazovor bo'lib kelayotganligi ularning xalq qo'shiqlariga o'ta mehr bilan yondashib, ularni miliy xususiyatlarini saqlagan holda, kerakli o'rinlarda zamonaviy ruh berib, ijro etayotganliklari muvaffaqiyatlarining bosh sababidir. Shuning uchun ham biz pereptuar tanlashda ushbu jamoalar, dastalar, xonandalar ijro etgan eeng yaxshi, ko'pchilikka manzur bo'lgan asarlarni tanlab, ko'pchiligi saxnaviy ijrolarini videotasmalarga tushirib oldik.

Kichik yoshdagi bolalar (boshlang'ich sinflar) uchun mo'ljallangan bolalar folklor qo'shiqlari va ularni ta'lim sohasiga tadbiq etish metodikasiga oid ilmiy uslubiy qo'llanmalarga va to'plamlardan foydalandik.

Bizning amaliy faoiyatimizdagi eng muhim ish shakllaridan biri o'quvchilar bilan dars jarayonida (musiqa tinlash faoliyatlarida) mana shunday asarlarni video yozuvlarini birgalikda tomosha qilish, tinglashdan iborat bo'ldi. Mazkur ish shakli maktabda o'tadigan turli madaniy–ommaviy tadbirlar, bayramlarga, ko'rik-tanlovlarga tayyorgarlik ko'rishda, bidiiy havaskorlik to'garaklari natijalarga erishish imkonini berdi.

Milliy musiqiy an'analarga mansub xalq qo'shiqlari termalar, o'lanlar, yor-yorlar, allalar, yallalar, ashulalar, bolalar folklor qo'shiqlari, ham ayrim mumtoz va maqom namunalarini tinglash bilan ular haqidagi tahliliy suhbatlarga jiddiy e'tibor berildi. Bu uslub bizning samarali ish usullarini aniqlash yo'lidagi ikkinchi yo'nalishimiz sifatida ahamiyat kasb etdi. Suxbat jarayonida qo'yidagi jixatlarga asosiy e'tibor qaratildi:

-Qo'shiqning mavzusi – matnda ilgari surilgan g'oyalar, tasviriy holatlar, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan xususiyatlari – do'stlik, qahramonlik, ishqiy-lirik tuyg'ular, insoniy fazilatlarni madh etilishi, salbiy illatlarni qoralanishi va xokazolar- suxbat, savol-javob, munozara shaklida taxlil qilindi. Shu o'rinda qo'shiqning nomi va shunday nomlanish sabablariga ham e'tibor qaratildi;

-Qo'shiqning xarakteri – sho'x, quvnoq, tantanali, madhiya, raqsboq, shuningdek, hazil, ma'yus, kulgili, yumor, uyin harakatlari bilan ijro etiluvchi;

-Qo'shiqning janri – ashula, qo'shiq, katta ashula, lapar, yalla, alla, mumtoz ashula, maqom tarkibiga kiruvchi ashula, dostonchilik qo'shig'i, terma, yig'i-yo'qlov, yor-yor, o'lan, mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlari bolalar folklori. Bu haqda so'z yuritilganda qo'shiqlarni qay holatda va vaziyatda, qanday uslubda, kishilar tomonidan (qiz-yigit bolalar, yakka, jamoa bo'lib) ijro etilishlari nazarda tutildi.

-Qo'shiqning qaysi mahalliy uslub va qaysi voha ijrochilikka tegishli ekanligi. Bu o'rinda respublikamizdagi to'rt yetakchi mahalliy uslublar – Samarqand – Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Farg'ona-Toshkent, Xorazm uslublaridan tashqari ayrim tumanlargagina xos bo'lgan ijrochilik an'analariga ham alohida e'tibor qaratildi. Masalan, Jizzax voxasida Toshkent-Farg'ona hamda Samarqand –Buxoro uslublarini aralash holda kelish hollari va ayni paytda Forish tumanida yashovchi xalq folklorini o'ziga xos farqli xususyaitlar ega ekanligi shunday yo'l tutish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi;

-Qo'shiqning yaratilgan davri va malliflari (agar ma'lum bo'lsa), shuningdek ijrochilari haqidagi ma'lumotlarni o'quvchi tinglovchilarga yetkazish;

-Turli mahalliy uslubdagi bir xil janrdagi ijrolarni taqqoslash. (yor-yorlar, o'lanlar, mavsum va marosimlar qo'shiqlari). Ularni o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;

-Nazariy tahlil. Asarning lad-tonalligi, o'lchovi, tempi, dinamikasi, ritmikasi, ritmik tuzilishi, shakli (bandli-naqoratli, rivojlanuvchanligi, 1 qismi, ikki qismli, uch qismliligi).

-O'quvchilarni asar haqidagi ta'surotlarini eshitish, asarlarga baho berish, munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlarni kuzatib borish;

-Namunalarni birgalikda o'rganish va kuylash.

-Taniqli xonandalar bilan uchrashuvlar o'tkazish, folklorshunos olimlar, tajribali musiqa mutaxassislarini taklif qilib suxbatlar uyushtirish, ijodiy jamoalarga musiqiy sayoxatlar o'tkazish. Bu kabi ish usullari shunisi bilan diqqatga molikligi, musiqani magnitofon, video, radio-televideniya orqali tinglashga nisbatan jonli tinglashning estetik ta'siri bir necha barobar yuqori bo'ladiki, bu musiqa pedagogikasida qilingan ko'pgina ilmiy-tadqiqotlar natijalarida bu o'z isbotini topgan. Qolaversa, bu narsaga biz ham o'zimizning amaliy kuzatuvlarimizda ishonch hosil qildik.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqiy madaniyatni shakllantirish, ya'ni ularni musiqa nazariyasi, tarixi, o'zbek, qardosh, chet musiqa madaniyatidan boxabar qilish va shu o'rinda ularda kuylash, tinglash va ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun musiqa darslarida asosiy e'tibor dastur va darslik materiallarida ko'zda tutilgan bilimlarni egallashga qaratiladi. Shuning uchun biz o'z tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida maktabdagi badiiy-havaskorlik to'garaklari faoliyatidan imkon qadar unumli foydalanishga harakat qildik. O'zimiz tomonimizdan saralangan ish shakl va usullarini qo'llagan holda to'garaklar jarayonida ham o'quvchilarni milliy musiqiy namunalarga qiziqish va mehr-muhabbatlarini

oshirib borish va estetik madaniyatini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Bu jarayonda o'quvchilarni, ansambl va jamoa bo'lib kuylashlari, cholg'u ansambli jo'rligida kuylashlariga, raqs jo'rligiga ayniqsa ko'proq e'tibor berildi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari bilan ish olib borilganda bolalar folklor qo'shiqlarini o'yin –raqs harakatlari bilan ijro etilishi asosiy diqqat e'tiborimizda bo'ldi.

Ayrim holatlarda mutaxassis baletmeysterlar xizmatidan ham foydalanishimizga to'g'ri keldi:

O'quvchilar bilan mana shunday maqsadli va tizimli ishlarni olib borishda didaktikaning soddadan murakkabga prinsipga qat'iy amal qilindi. Unda o'quv va to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni yosh xususiyatlari, sinfi, estetik bilimlari va musiqiy-nazariy (vokal, xor kuylash) darajalari hisobga olindi. Aynan mana shu faktorlarga muvofiq tarzda milliy qo'shiqlar sinflar kesimida, to'garaklarda esa bir-biriga yaqin guruhlar imkoniyatlari va xususiyatlariga qarab, murakkablik darajasiga qarab ajratilib chiqildi.

O'quvchilar bilan xalq milliy-musiqiy namunalarini o'rganish, ish olib borishida ularni qiziqishi va munosabatlarini aniqlash muhimdir. Biz o'quvchilarni qiziqish va munosabatlarini aniqlash uchun ularga savollar bilan murojaat qilganimizda aksariyat 5-7-sinf o'quvchilarini ko'pchiligi o'zlarini ovoz diapozoni va ijrochilik imkoniyatlariga mos bo'lmagan, yirik xalq xofizlari va xonandalar tomonidan ijro etiladigan murakkab asarlarni, ba'zida mumtoz va maqomga tegishli ashulalarni kuylash istagida ekanliklarini bildirishdi. Shuningdek, el orasida ommalashgan zamonaviy lirik va estrada xonandalari ijrosidagi, to'ylarda aytiladigan qo'shiqlarni ham yoshlarga ta'siri kattaligini ta'kidlab o'tishni joiz deb bilamiz. Shunday vaziyatda o'quvchilar bilan qo'shiqchilik san'ati, xonandalik talablari, vokal-xor tarbiyalash xususida chidam bilan suxbatlar, tushuntirish ishlari olib

borildi. Ularga vaqti kelganda albatta o'zlari istagan ashula va qo'shiqlarni ijro etishlari mumkinligi o'qtirildi.

O'quv va to'garak mashg'ulotlarida xalqimizning mashhur san'atkorlar, xalq milliy qo'shiqlarining mohir ijrochilari, bilimdon va targ'ibotchilari bo'lmish Halima Nosirova, Tamaraxonim, Muxiddin Qoriyoqubov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Mullato'ychi Toshmuxeimedov, Fattoxxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Gulshod Otaboyeva, Raxima Mazoxidova kabilar haqida, ularning serqirra ijodi haqida turkum suhbatlar orqali ma'lumotlar berib bordik. Suhbatlarda sana'tkorlarning eng mashhur va manzur asarlarini iloji boricha tinglash, namoyish qilishga harakat qildik. Ushbu san'atkorlarning respublikamiz va chet ellarda o'zbek milliy san'atini namoyish qilganliklari va chet mamlakatlarda ham zo'r muvaffaqiyat qozonganliklari haqidagi tarixiy ma'lumotlarga, videoyozuvlarga ham muhim o'rin berildi. Mazkur yo'nalishda Komiljon Otaniyozov, Fattoxxon Mamadaliyev, Tamaraxonim, Halima Nosirova, "Boysun", "Gashtak", "Beshqarsak" folklor jamoalarining, Shuningdek, Munajat Yo'lchiyevaning Fransiya, Belgiyadagi konsertlaridan lavhalarini birgalikda tomosha qilinishi o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Xalq artisti Tamaraxonim, Muhiddin Qoriyoqubov, Usta Olim Komilovlarning 1925 yil Londonda o'tgan jahon xalqlari ko'rgazmasida o'zbek san'atini namoyish qilib, Yevropalik san'at muxlislarini hayratiga sazovor bo'lishgani va Usta Olim Komilovga Angliya qirolligining oltin medali berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham o'quvchilarni o'zbek milliy musiqasiga uning mashhur namoyondalari ijodiga katta qiziqish va ularni o'rganish, kuylashga bo'lgan ishtiyoq va havaslarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayni mana shu yo'nalishda xalq musiqasi ijrochiligida o'ziga xos uslubi bilan shuxrat topgan xonandalar – Maxmud Namozov, Xosila Raximova,

Buxoro “Mavrigi”lari ijrochisi Mardon Mavlonov, Farxod Saidov kabilarning ijrolari yozilgan disklarni tinglash, video yozuvlarni tomosha qilish o’quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Biz qo’llagan ish uslublaridan yana biri xalq milliy musiqa an’analarini vositasida o’quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishda faqatgina o’zbek xalqiga tegishli namunalar bilan cheklanmasdan, xalqimiz bilan yonma-yon yashab kelgan tojik, qozoq, qirg’iz, ozarbayjon, uyg’ur va ayrim o’rinlarda chet el va yevropa xalq kuy qo’shiqlaridan ham foydalanildik. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini kengaytirishga, turli xalqlar musiqa madaniyatidagi o’xshashlik, mushtaraklik, an’anaviylik ko’rinishlarini anglash, tushinishlarida qo’l keldi.

San’atning mumtoz va maqom, dostonchilik kabi murakkab janrlari xaqidagi mashg’ulotlarning o’quvchilarga ijobiy emosional ta’siri ayniqsa yuqori bo’ladi. Bu yo’nalishda mumtoz kuy-qo’shiqlarga atab “O’lmas navolar”, “Xalqimizning jonbaxsh qo’shiqlari”, “Yosh baxshilar” mavzularida suxbat, konsert, ma’ruza – konsert, ko’rik tanlovlar tashkil qildik. Bular xalqimiz orasida mashhur bo’lgan “Munajat”, “Tanovar” sirasiga kiruvchi qo’shiqlar, lazgi, Navro’zi Ajam, “Dilxiroj”, Buxoro mavrigilari, dostonchilik (Alpomish, Toxir va Zuxra, Oshiq G’arib va Shoxsanam) qo’shiqlari va bolalar folklor qo’shiqlarga bog’lab o’tkazildi. Tadbirlar jonli ijro, muloqot, munozara, savol-javob, tarzida o’tkazildi.

Tajribalarimizda qo’llanilgan yana bir ish uslubimiz haqida to’xtalib o’tamiz. Bu musiqa mashg’ulotlarini fanlar aloqadorligida tashkil etish. Darslarni bu usulda tashkil etilishi biz kutganimizdan ham ko’ra qiziqarli va samarali bo’lishini kutmagandik hg’am. Bunday darslarda o’quvchilarni ona tili va adabiyot, tarix, tabiatshunoslik, odobnoma, jismoniy tarbiya, tasviriy san’atga oid bilimlarini sinovdan o’tkazish va ularni ushbu faonlar bo’yicha qo’shimcha ma’lumotlar bilan tanishishlariga keng imkoniyatlar yaratish

bilan birga ularni mushoxada qilish, fikrlash, o'z taasurotlarini o'rtoqlashish kabi ko'nikma va malakalarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, umuma'lim maktablarining 6-sinifda yil mavzusi "Mumtoz musiqa" deb nomladi. O'quv yili 1-choragida o'quvchilarga o'zbek mumtoz musiqasi haqida zarur bilim va tushunchalar beriladi. 2-chorak esa "Sharq xalqlari mumtoz musiqasi" deb nomlanadi. 3-chorak esa "Zamonaviy o'zbek musiqasi" mavzusida, 4-chorak esa "Yevropa klassik" musiqasiga oid ma'lumotlar o'rganiladi.

Biz o'z tajribalarimizda o'zbek mumtoz musiqasi mavzusidagi darslarni o'tish jarayonida uni texnologik loyihalash orqali tashkil etish va bu texnologiyani ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini kuzatishga muvaffiq bo'ldi. Chunki, milliy musiqa merosimiz tarkibida g'oyat muhim o'rin tutuvchi, yuksak ijodiy zakovat va iste'dod maxsuli bo'lmish mumtoz kuy va qo'shiqlar ulkan ma'naviy va ahloqiy tarbiya vositasi hisoblanadi. Qat'iy qonuniyatlari vositasida an'anaviy mohiyati kasb etgan mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlar ashulalarida millat zakosi, ajdodlarimiz ruhoniyyati o'z ifodasini topadi. Mumtoz musiqa asarlarining, ashulalarning she'riy matnlari ham asosan, mumtoz she'riyat namunalariga bastalangan bo'lib, ular poetik asar emas, balki ularning mazmunida yoshlar uchun o'git-nasihat keng o'rin olgan ta'lim-tarbiyaviy didaktik she'riyat yuksak namunasi hisoblanadi. Darhaqiqat so'z va musiqa inson hissiy idrokiga tez ta'sir o'tkazadigan vositadir, negaki, musiqa voqyelikni ohang vositasida badiiy obraz tasavvuriga alantira olish qudratiga ega bo'lgan san'at hisoblanadi.

Mumtoz musiqani yana bir muhim jihati ularni ustoz-shogird an'anasiga asoslanganligidir. Dars jarayonida mumtoz asarni tinglash, kuylash va tahlil

qilish o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur, milliy tafakkurni rivojlantirishga ham kuchli ta'sir qiladi.

Tajribalarda mumtoz va maqom namunalarini tinglash, tahlil qilishda mumtoz she'riy matn va ohang uyg'unligidagi o'xshatishlar, solishtirishlar, tanbehlar, ruhiy kechinmalar ifodasi, obraz va voqyelikka sifatlarning ijodkor ichki kechinmalari bilan bog'lanib bo'rttirib tasvirlanishi, kuy tuzilmasining murakkab kompozitsiyasi, ohang ijrosidagi o'ziga xos nola, qochirim, avj, ayrim tuzilmalarni takrorlanib kelishi, milliy ijrochilikka xos bezaklarga alohida e'tibor qaratildi.

Texnologik loyixalash asosida o'tkazilgan darslarimizdan biri milliy mumtoz san'atimizning gultojlaridan bo'lmish "Samarqand ushog'i" ashulasiga bag'ishlandi.

Sof ishqiy muhabbatni tarannum etuvchi bu ashulaning g'azali fors tilida yozilganligiga qaramay uni o'zbek va tojik san'atkorlarining juda ko'plab vakillari mahorat bilan ijro etishgan va bugungi kunda ham juda ko'p iste'dodli xonandalar repertuaridan keng o'rin olgan asardir. Ushbu ashulani dars jarayonida o'rganish hal etiladigan muayyan vazifalar quyidagicha amalga oshirildi.

<p>МУМТОЗ АШУЛА “Самарқанд ушшоғи”</p>	⇒ Ashulani talabalar (o'quvchilar) ning ijrochilik malaka va ovoz imkoniyatlariga mosligini o'rganish.
	⇒ Ashulani fors tilidagi va o'zbek tiliga o'girilgan matn yozuvini tayyorlash.
	⇒ Auditoriyada ashulaga mos muhitni, talaba (o'quvchilar)da shunga monand kayfiyatni vujudga keltirish.
	⇒ Ashulaning she'riy matni va musiqa muallifi haqidagi ma'lumotlar.
	⇒ Ashulaning mohir ijrochilari haqida ma'lumotlar.
	⇒ Asar she'riy matnini ifodali o'qish (fors va o'zbek tiliga o'girilgan matnlarni).
	⇒ Asar g'oyaviy badiiy mazmunini tahlil qilish tushunilishi qiyin so'zlarga izoh berish.
	⇒ Oldindan bir ikki talaba (o'quvchini ashula ijrosiga tayyorlash).
	⇒ Asarning mashhur san'atkorlar ijrosidagi musiqiy yozuvini tinglash.
	⇒ Asarni musiqiy – badiiy tahlil qilish.
	⇒ Ashulani qismlarga bo'lib o'rganish. (necha soatga mo'ljallanganiga ko'ra vaqtni tasimlash).
	⇒ Asar o'rganilgach uning yozuvini eshittirish.
	⇒ Badiiy ijro ustida ishlash.
⇒ Yakuniy tahliliy suhbat o'tkazish. Ijroni baholash, xulosa qilish.	

Loyixa bandlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar:

-Loyixa maktab o'quvchilari uchun mo'ljallanganligi uchun asosiy e'tibor tinglash va tahlil qilishga qaratildi;

- Ashulani mashhur san'atkorlar ijrosidagi yozuvlari – Malohat Dadaboyeva, Munojot Yo'lchiyeva, Maryam Sattorova, Dilnura Qodirjonova, O'ktam Axmedov ijrolari tanlandi, qiyosiy tahlil qilindi.

- Ashula, uning mohir ijrochilari haqidagi ma'lumotlar o'rnida xalqimizning ardoqli va mashhur san'atkori, xalq artisti Halima Nosirovaning bu ashulaga mehri va uning qanday o'rganganligi xususida yozilgan esdaliklaridan parcha o'qib eshittirildi.

- Asar mualliflari (musiqa xalqniki, she'riy matn muallifi Zebuniso) haqida quyidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tildi. Samarqand ushshog'i- Injost (ashulasi) ashulasi XVI-asrda yashab ijod qilgan shoira Zebunisoning "Injost" (qyelmadi) radifli g'azaliga bastalangan. Ulug' shoh va shoir Bobur avlodidan bo'lgan Zebuniso Sharq adabiyotida ma'lum iz qoldirgan Robal Balxiy, Mahsatiy, Iffatiy, Ismatiy, Samarqandiy kabi ijodkorlar qatorida turuvchi shoiradir. Uning ishqni ulug'lovchi insoniy fazilatlarni madh etuvchi "Injost", "Nashud", "Garchu man Layli asosan" singari maqom kuylariga solib aytiluvchi g'azallari mashxurdir.

- Bu ashulani o'zbek va tojik san'atkorlarining bir necha avlodi qiyomiga yetkazib ijro etishgan. Hoji Abdulaziz Adurasulov, Levi Boboxonov, Shohista Mullajonova, Barno Isxoqova, Berta Davidova, Munojot Yo'lchiyeva, Dilnura Qodirjonova, Maloxat Dadaboyevalar shular jumlasidandir.

- Asar she'riy matnidagi tushunilishi qiyin so'zlar "Shahid", "Karbalo", "Zakot", "Qarashma", "Mustahiq", "Zulf" kabi so'zlarga izox berildi.

- Asar ijrosidagi anchayin murakkab ma'lum ijrochilik malakalarini talab qiladigan qismlari uchun sinfdan iqtidorli 2,3 o'quvchi oldindan tayyorlandi:

- Asarni qismlarga bo'lib o'rganishda vaqtni to'g'ri taqsimlash, necha soatga mo'ljallanganligi hisobga olindi.

III. Bob: Maktab musiqa ta'limida xalq musiqa merosidan foydalanish amaliyoti va uning samaradorligi.

3.1. Estetik tarbiyada xalq musiqa merosidan foydalanish amaliyoti natijalari

Hozirgi kunda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Musika madaniyati" fanini o'qitish jarayonida hamda sinfdan tashqari musiqa ta'limi va tarbiyalash ishlari mazmunida o'quvchilarni xalq musiqa merosi bilan izchil va maqsadli tanishtirib borish, shu orqali ularda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini qolaversa milliy etika va estetik tarbiyani amalga oshirish brakamol shaxsni yetishtirish yo'lidagi eng muhim vazifalardan ekan, bu o'rinda bizning tadqiqotimizda ushbu maqsad yo'lida olib borilgan tizimli ishlar, qo'llanilgan metodik o'ziga xos samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Bizning tadqiqot ishlarimiz, xususan amaliy tajribalarimiz maxsus ishlab chiqilgan reja va dastur asosida va tadqiqiy ishlanishlar davomida muayyan bir tizimli yo'nalishga keltirilgan metodika asosida olib borildi va qo'llanilgan ish usul va shakllar pedagogik tajribag'sinov jarayonida nazardan o'tkazildi.

Tajriba sinov ishlarining ta'kidlovchi bosqichida ko'zda tutilgan ishlar 2015-2016 yillarda Samarqand shahridagi № 14 umumiy o'rta ta'lim maktablarida, Samarqand tumanidagi №_____ sonli maktablarda olib borildi.

Tajriba- sinov ishlari belgilab olingan tartibda tadqiqot farazi, metod va usullarning qay darajada to'g'ri va samarali ekanligini sinab ko'rish maqsadi asosida olib borildi.

Biz amaliy tajribamiz davomida qo'llagan, tavsiya etgan texnologiya vositasida o'quvchilarda milliy musiqa merosimizga to'g'ri munosabat, turli janrlarda yaratilgan folklor namunalari, aytimlari, raqs-o'yinlarni o'rganish va shu jarayonda xalq musiqasining anchayin murakkab janrlari bo'yicha zarur bilim, amaliy ijrochilik malakalarini egallashga bo'lgan e'tibor, qiziqishni ortganligi sezila bordi. Bu o'tkazilgan yozma va og'zaki so'rov, suxbat, kuzatish va amaliy ijrolarni tahlil qilish, o'quvchilarni ayrim madaniy-ma'rifiy tadbirlarga, ko'rik-tanlovlarga jalb qilish, chiqishlarini kuzatish kabi jarayonlarda kuzatildi.

Amaliy tajribalar jarayonida o'quvchilarni xalq musiqa merosiga oid aytilar-qo'shiq, alla, yalla, lapar, terma (dostonchilik qo'shiqlari) mavsum, marosim qo'shiqlari va sinflar darsliklaridagi musiqiy mavzular bo'yicha berilgan mumtoz va maqom namunalari haqida kengroq bilim va tushunchalar olish, namunalarni o'rganish va kuylashga bo'lgan qiziqishlarini o'sib borish dinamikasi nazorat qilib borildi.

Kuzatilgan va olib borilgan faoliyat natijalari yuzasidan tahlillar shuni ko'rsatadiki maqsadli va izchil yo'lga qo'yilgan mashg'ulotlar o'z natijasini berdi. Bu ayniqsa turli janrlardagi qo'shiqlarni o'rganish, kuylash, ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishtirib borish, ayrim asarlarga bag'ishlangan maxsus suxbatlar, munozara-baxslar, "Bir qo'shiq oqshomi" kabi tadbirlar, mashg'ulotlarni fanlar aloqadorligida tashkil etish, uni texnologik toyixalashtirish shaklda tashkil etish, taniqli xalq xofizlari, baxshilar, folklor jamolari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar, ularning konsertlariga, repitisiyalariga jamoa bo'lib borish, kuzatish va taxliliy suxbat o'tkazish jarayonida yaqqol ko'zga tashlandi.

Shuni aytish kerakki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" fani yangi dasturiga kiritilgan xalq qo'shiqlari, mumtoz kuy, qo'shiqlar, dostonchilik aytilari va xalq musiqasi asosida yaratilgan

zamonaviy bastakorlar, kompozitorlarining chinakkam milliy ruhdagi asarlarini o'rganish, tinglash o'quvchilar xalq musiqasiga barqaror qiziqishni shakllantirishga, mashg'ulotlarga faol ishtirok etishga, o'z bilim, tushuncha, mahoratlarini imkon qadar ko'pchilik oldida (tadbirlar, maktab sahnasi) ko'proq namoyish etishga intilishlari kuchayganligida namoyon bo'ldi.

Amaliy tajribalar jarayonida xalq musiqa merosi namunalarini yakka, jamoa bo'lib o'rganish, kuylash, ular yuzasidan suxbatlar o'tkazish, yetuk xonandalar ijrosini tinglash, tahlil qilish, taqqoslash kabi ish shakllaridan unumli va o'z o'rnida foydalanish doimiy e'tiborimizda bo'ldi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablari 4-sinf "musiqa madaniyati" fan darsligi va dasturida yil mavzusi "xalq musiqa ijodi" deb nomlanadi. 1-chorak mavzusi esa "o'zbek xalq aytim va cholg'ulari" deb nomlanib, unda darslar xalq qo'shiqlari, (Oh layli, tomdan tarasha tushdi, Mehnat qo'shiqlari), (Ko'p hayda, urchuq), "Lapar" (Bilakuzuk, qoraqosh, qilpillama, oq terakmi ko'k terak), "Yalla" (yallama-yorim, olmacha anor), shundan so'ng "o'zbek xalq cholg'ulari" mavzulari ostida tizimlashtirilgan.

2-chorak "Bayram va marosim qo'shiqlari" deb nomlangan, o'quv materiallari "Umumiy tushuncha" (charx, norim-norim), "To'y marosim qo'shiqlari" ("Yor-yor, kelin salom" aytimlari), "Xalq raqslari (tanovar, andijon polkasi, lazgi, dilxiroj, qardosh xalqlar raqslari – Gopak, Bulba, Kamarenskaya), "Alla aytimlari (Alla o'zbek xalq aytimlari, Alla-Mosart asari, oyijonim allasi – F.Alimov musiqasi. Alla haqida rivoyat)" mavzulari ruknida taqdim etilgan.

3-chorak. "Mavsum qo'shiqlari" bo'lib, uning mazmunida "mavsum va marosim qo'shiqlar, qish fasli gap gashtaklari, nay sadosi, Mirzadavlat xalq kuyi, qari navo" xalq kuyi) mavzuga taalluqli ma'lumotlar va keltirib o'tilgan namunalar nota yozuvlariga o'rin berilgan.

Marosim qo'shiqlari va aytimlariga misol tariqasida ramazon aytimlari, bahor-navro'z bayrami qo'shiqlari – Boychechak, Navro'zi olam – xalq kuyi) taqdim etilgan.

4-chorak “Bahor fasli qo'shiqlari” bo'lib, uning tarkibida “Bahor fasli haqida tushuncha” (Bahor keldi, Lola, Bahorim Yu.Rajabiy musiqasi), “Bolalar xalq qo'shiqlari (Yomg'ir yog'aloq, Binafsha, Gullar manim kulganim – N.Norxo'jayev musiqasi, Diyorimsan – K.Jabborov, Ganji Qorabog')”, “Bahor elchilari haqida qo'shiqlar” (Arg'amchi, qichqir xo'rozim, Uchavering turnalar – F.Nazarov, Chumchuqvoy, Bulbulcha, Chamandagul) ruknlari bilan xalq musiqa ijodiga oid musiqiy asarlar tavsiya etilgan.

5-sinfda o'quv materiallari asosan kompozitorlik janriga oid bo'lib, kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar ham xor, orkestr, sahnaviy musiqa asarlari – opera, balet, musiqali drama va komediya, sinfonik musiqa, vokal-sinfonik janrlarga tegishli bo'lsada ular tarkibida xalq musiqa ijrosi namunalariga ham salmoqli o'rin ajratilgan.

6-sinfda yil musiqiy mavzusi “Mumtoz musiqa” deb nomlanadi. 1-chorakda “Mumtoz musiqa haqida tushuncha” beriladi. Amaliy faoliyatda “Guluzorim”, Bozurgoniy, Feruz-1, Savti Suvora, Nasrulo-1, Samarqand ushog'i, Sayqal kabi asarlar tinglash uchun, rost maqomidan “Ushoq soqiynomasi” jamoa bo'lib kuylash uchun tavsiya etilgan. 2-chorak “Zamonaviy musiqa va uning asosiy yo'nalishlari”, 3-chorak “Sharq xalqlari mumtoz musiqasi”, 4-chorak “Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv” ruknlarida nomlangan. Tavsiya etilgan asarlar sirasiga qayta ishlangan, xor ijrosiga moslashtirilgan xalq qo'shiqlariga, shuningdek sharq xalqlari mumtoz musiqasi namunalariga o'rin ajratilgan. Bunday asarlar bilan tanishuv o'quvchilarda o'zbek musiqa san'atining boshqa (sharq) xalqlar

musiqa san'ati bilan o'xshashlik va bir-biriga yaqinlik jihatlari haqida tushunchalar hosil qilish imkonini beradi.

7-sinfda o'quvchilar xalq musiqa merosida eng zalvorli murakkab va mumtoz san'atimizning durdonalari bo'lmish maqomlar (Shashmaqom, Farg'ona – Toshkent, Xorazm) haqida, hamda o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari haqidagi bilim va tushunchalarni mujassamlashtirgan o'quv materiallari bilan tanishadilar. Musiqa tinglash va kuylash uchun taqdim etilgan musiqiy asarlar jamlamasida dostonchilik qo'shiqlari, Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent, Xorazm maqomlariga tegishli bo'lgan asarlar, cholg'u kuylari, xalq kuy va ashulariga keng o'rin berilgan. O'quvchilar egallaydigan bilim va malakalar quyidagicha ta'riflanadi: - o'quvchilar musiqa san'atida mahalliy uslublarni mahalliy shevalarga, kiyinish madaniyatiga, cholg'u sozlariga qiyoslab o'rganishlari, farqlashlari lozim.

Ular ustozona musiqa, uning xalq musiqasidan farqli jihatlari (shakl, mazmun, ijro, uslub) haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari, shoshmaqom ashula bo'limiga doir asosiy yo'llarni tinglash, usul ohanglarini idrok etishlari lozimligi ta'kidlanadi.

Biz o'zimizning amaliy tajribalarimizda o'quvchilarni darsliklardan o'rin olgan xalq musiqa merosiga oid kuy-qo'shiqlar, lapar, yalla, alla, katta ashula, ashula, mavsum va marosim qo'shiqlari, mumtoz va maqom namunalarini bilan izchil ravishda tanishtirib borishda imkon qadar ular haqida to'la nazariy ma'lumotlarni berib borishga harakat qildik. Bu o'rinda asarlarni janri, mavzusi, xarakteri, ijro uslubi, an'anaviyligi, qaysi mahalliy uslubga tegishliligi, mashhur ijrochilari, ayrim janrlarga xos asarlarni ijrosidagi o'xshash va farqli jihatlarni namoyon bo'lishi, musiqiy atamalarni nomlanishi, cholg'u sozlari, mumtoz va maqomlarning asosiy ashula va

cholqu yo'llari, nomlanishi, farqli va o'xshash tomonlari, atoqli bastakorlar, xalq xofizlari ijodi haqida kengroq ma'lumot, tushunchalar berib borildi.

Tajribalar jarayonida xalq musiqa merosi bilan o'quvchilarni har tomonlama chuqur tanishtirib borish uchun faqat musiqa darslari bilan cheklanib qolish kuzatilgan maqsad uchun yetarli bo'lmasligiga ishonch hosil qildik va bu ishlarni sinfdan tashqari musiqiy faoliyatda (musiqiy to'garaklar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tayyorgarlik) olib borish yo'lga qo'yildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish jarayonini tahlil qilish natijasida darsliklardan o'rin olgan musiqiy mavzular va ular mazmunida umumlashgan bilim, tushuncha, ma'lumotlar ko'lamiga nisbatan ajratilgan soatlar hajmini nihoyatda kamligiga guvoh bo'ldik. Bizning fikrimizcha o'quvchilarda haqiqiy musiqiy bilim va tushuncha, amaliy ko'nikma va ijrochilik malakalarini shakllantirish uchun bu yetarli emas.

O'quvchilarni xalq musiqa merosi, uning shakllanish yo'llari, yetakchi janrlari, idjrochilik an'analari, o'ziga xos maxalliy uslublari, musiqiy sozlari haqida bilim va tushunchalari qanday ekanligini o'rganish maqsadida quyidagicha savollar asosida tuzilgan so'rovnomadan foydalandik:

1. Xalq musiqa merosi deganda nimani tushunasiz ?
2. Og'zaki an'anadagi xalq musiqasi qanday yo'nalishda rivojlanib kelgan?
3. Ommaviy janrlar iborasiga tushuncha beraolasizmi?
4. Qo'shiq janriga ta'rif bering ?
5. Qo'shiq va ashulani farqli xususiyatlari nimada ko'rinadi?
6. Mumtoz - so'zi nimani anglatadi?
7. O'zbekiston xududida nechta mahalliy musiqiy uslub shakllangan?
8. Qashqadaryo – Surxondaryo musiqa uslubiga xos yetakchi xususiyatlar haqida fikringiz?
9. Mehnat qo'shiqlariga misol keltiraolasizmi?

10. Chorvachilik bilan bog'liq qanday qo'shiqlarni bilasiz?
11. Yalla janriga ta'rif bering ?
12. Katta ashula qanday ijro etiladi ?
13. Mavrigi qo'shiqlariga xos xususiyatlar haqida nima deya olasiz ?
14. Qubiz, surnay, chanqovuz, do'mbira, qaysi mahalliy uslubda keng qo'llaniladi?
15. Samarqand – Buxoro musiqa uslubida eng muhim xususiyat nimada ko'rinadi?
16. Sozandachilik san'ati haqida nima bilasiz?
17. Xalfachilik san'ati – qanday san'at ?
18. Xorazmda qanday raqs turlari rivojlangan ?
19. Yalla qo'shig'iga ta'rif bering?
20. Qanday marosim qo'shiqlarini bilasiz ?
21. Mavsum qo'shiqlariga misol keltira olasizmi ?
22. Lapar qanday tarzda ijro etiladi ?
23. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida keng tarqalgan xalq kuylari va ashulalari nomlarini bilasizmi?
24. “Yovvoy maqom” tushunchasi nimani anglatadi ?
25. Shoshmaqomni ashula va cholg'u yo'llari qanday ataladi ?
26. Xorazm maqomlarini cholg'u va aytim yo'llari qanday nomlanadi?
27. Shoshmaqomni (olti maqom) olti turkumi qanday nomlanadi?
28. Musiqada “ikki tillilik” qaysi mahalliy uslubga xos?
29. “Terma” ga ta'rif beraolasizmi ?
30. Qanday bolalar folklor qo'shiqlarini bilasiz ?

So'rovnoma savollari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Samarqand shahridagi № 29 sonli umumta'lim maktabining 2 ta 7-sinf (7^a-sinf tajriba, 7^b-sinf nazorat) o'quvchilariga (60 nafar), № 14 sonli maktabning 2 ta 7-sinf

o'quvchilariga (tajriba sinfida 29, nazorat sinfida 30 o'quvchi) va Samarqand tumanidagi №__ sonli maktabning 2 ta sinf o'quvchilariga (tajriba sinfida 30 ta o'quvchi, nazorat sinfida 31 ta o'quvchi) tarqatildi.

Olingan javoblarni tahlil qilishda ularni 3 ta daraja bilan (3 ta guruhga ajratga holda) baholashni lozim topdik va javoblar natijalariga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz" darajalarida umumlashtirildi.

Pedagogik tajribalarimizning dastlabki bosqichida o'quvchilarni xalq musiqa merosi, umuman olganda xalq musiqasining ommaviy janrlari, turlari, mahalliy musiqiy uslublar, ulardagi yetakchi farqli xususiyatlar, cholg'u-sozlari, mumtoz va maqom san'ati ularning o'ziga xosligi va umumiylik jihatlari, turkumlari, dostonchilik yo'nalishlari haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlari anketa so'rovlariga berilgan javoblarga ko'ra anchagina so'rov ekanligi aniqlandi. Bu hol ayniqsa ko'plab o'quvchilarni savollar mohiyatini to'g'ri anglay olamaganliklari, javoblarni aniq va puxta ifoda etaolmaganliklarida, qisqa va bilmayman yoki bo'sh qoldirilganligida namoyon bo'ldi.

Bu esa:

- Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarida xalq musiqasi bo'yicha o'quvchilarga yetarli darajada nazariy bilim tushunchalarni berish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- Darslarni xalq musiqa merosiga oid qo'shiq, aytimlarni faqat tinglash va kuylash bilan cheklanib qolganligi, ta'lim va qo'shimcha ma'lumotlarga e'tiborni sust ekanligini;

- O'quvchilarning milliy xalq musiqasi uning og'zaki an'anadagi folklor, mumtoz va mag'om yo'nalishlari bo'yicha yetarlicha bilim, tushuncha va tasavvurga ega emasliklarini;

- O'quvchilarning badiiy yuksak va sayoz musiqa asarlarini baholash, farqlash va ularga o'z munosabatini bildirish ko'nikmalari, demakki, estetik didlarini yetarli darajada shakllanmaganligini;

- O'quvchilarning xalq musiqasining tarbiyaviy va badiiy-emosional ta'sir imkoniyatlari haqida yetarlicha mushohada yuritaolmasliklarini, bu esa umumta'lim maktablarida darslarida ham hanuz davlat ta'lim standartida belgilangan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mezoni darajasida o'quvchilarni zarur bilimlarni egallashlariga e'tiborni sustligini ko'rsatar edi.

3.2. Tajriba sinov ishlarining yakuniy natijalari tahlili.

Tajriba sinov ishlarimizning dastlabki bosqichida o'quvchilarning xalq musiqa merosi bo'yicha o'quv dasturi va darsliklaridan o'rin olgan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan anketa so'rov natijalari tahlili bizni ancha tashvishlantirib qo'ydi. Natijalarni qoniqarli darajada emasligidan kelib chiqqan holda pedagogik tajribalarimizning asosiy shakllantiruvchi bosqichida o'z tadqiqot ishimizning maqsadini amalga oshiruvchi vazifalarni bajarishga izchil kirishildi.

Bu o'rinda dissertasiyaning 2-bobida bayon etilgan metodika asosida tajriba guruhlarida sinfdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida ishlar yo'lga qo'yildi. Musiqa o'qituvchilari tadqiqot maqsadi, vazifalari, tajribag'sinov ishlarining reja va dasturi bilan tanishtirildi. Shunga muvofiq dars mavzulariga qo'shimcha ravishda xalq musiqasi namunalari, ularga oid ma'lumotlar kiritildi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham xalq musiqa merosiga oid ishlarga alohida vaqt ajratilib, mashg'ulotlarni har tomonlama qiziqarli shakl, usul va vositalar orqali tashkil etishga kirishildi. Musiqiy

sayohat, viktorina, savolg'javob, darslarni texnologik loyixalash, uni fanlararo aloqadorlikda tashkil etish, konsert darslarini tashkil qilish, kabi metodlar o'quvchilarni qiziqishi va ma'lumotlarga faol qatnashishida samarali usullardan bo'ldi.

Belgilangan muayyan qizg'in faoliyatdan so'ng 2-bosqich anketa so'rovlari o'tkazildi. Tajriba yakunida erishilgan natijalarni aniqlashda Styudent-Fisherning pedagogik tadqiqot natijalarini isbotlash uchun ishlab chiqqan matematik statistik metodidan foydalandik.

Bizning ilmiy amaliy tajribalarimiz nollik farazi bo'yicha tajriba guruhlarida qo'llanilgan ish uslublarimizning o'quvchilarni umumiy estetik madaniyati, ya'ni xalq musiqa merosi bo'yicha bilim, tushuncha, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini yuqori darajada shakllanishiga imkon bermaydi deb hisoblasak, tajriba va nazorat sinflaridagi kuzatilgan tajriba yakunlari ahamiyatsiz bo'lib chiqardi. Olingan natijalar nollik farazining o'zgaruvchanlik xususiyatini ko'rsatuvchi asos bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan birgalikda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning bilim, tushuncha va amaliy ijrochilik ko'nikma, malakalaridagi farqni statistik jihatdan isbotlab berdi. Bu esa biz tomonimizdan o'quvchilarni xalq musiqa merosi bilan izchil va maqsadli tanishtirib borish va shu orqali ularda xalq musiqa merosiga barqaror qiziqish, uni tinglash o'rganish, kuylash, zarur ma'lumotlarni mustahkam o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va faol munosabatni shakllantirishga yo'naltirishgan metodikamizni samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning xalq musiqa merosi bo'yicha egallagan bilim, tushunchalarini aniqlash bo'yicha anketa so'rovi hamda savolnomalar bo'yicha ularning javoblarini baholashga imkon beruvchi mezonlar ishlab chiqildi.

Xalq musiqasining mohiyati, ularning an'anaviylik xususiyati, rivojlanish yo'llari, respublikamizning turli vohalarida shakllangan mahalliy musiqiy uslublar, ulardagi yetakchi janrlar, ijrochilik an'analari, o'xshash va farqli jixatlar haqidagi bilimlarni aniqlovchi anketa so'rovnomali savollariga o'quvchilar tomonidan qaytarilgan javoblar ballik tizimda quyidagicha baholandi.

1. Ijobiy bahoga loyiq – 3 ball;
2. Qoniqarli bahoga loyiq 2 ball;
3. Qoniqarsiz deb topilgan – 1 ball;

O'quvchilarning musiqiy nazariy bilimlarni o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mezoni talablariga muvofiq kelishini belgilovchi javoblar esa quyidagicha baholandi:

- To'g'ri va to'liq deb topilgan javoblar – 5 ballik tizimda baholandi;
- Qisman to'g'ri, noto'liq deb topilgan javoblar – 3 ballik tizimda baholandi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning anketa so'rovi yuzasidan bergan javoblari natijalari quyidagicha bo'ldi. (1-2 jadvallarda)

1-jadval

O'quvchilarning anketa so'rovi yuzasidan javoblari ko'rsatgichlari. (tajriba guruhi).

Tajriba o'tkazilgan maktablar	Tajribadan oldin P ₁ - 180 nafar			Tajribadan keyin P ₁ - 180 nafar		
	Ijobiy (yaxshi)	qoniqarli	qoniqarsi z	Ijobiy (yaxshi)	qoniqarli	qoniqarsiz
Sam.sh. № 29 sonli maktab	8	20	37	16	18	23
Sam.sh. № 14 sonli maktab	7	18	30	14	21	29

Sam.tum. № __ sonli maktab	8	22	30	13	19	27
	23	60	97	43	58	79

2-jadval

O'quvchilarning anketa so'rovi yuzasidan javoblari ko'rsatkichlari. (Nazorat guruhi).

Tajriba o'tkazilgan maktablar	Tajribadan oldin P ₁ - 180 nafar			Tajribadan keyin P ₁ - 180 nafar		
	Ijobiy (yaxshi)	qoniqarli	qoniqarsi z	Ijobiy (yaxshi)	qoniqarli	qoniqarsiz
Sam.sh. № 29 sonli maktab	6	22	30	5	18	29
Sam.sh. № 14 sonli maktab	6	20	33	7	19	33
Sam.tum. № __ sonli maktab	7	18	41	8	25	39
	19	60	104	20	62	101

O'quvchilarda xalq musiqa merosi bo'yicha zarur bilim va malakalarni shakllanganligi darajasining umumiy ko'rsatkichi.

Guruhlar (sinflar)	Tajriba avvalida			Tajriba yakunida		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi P ₁ - 180 nafar	31	62	87	108	57	15
Nazorat guruhi P ₁ - 180 nafar	53	98	32	41	63	79

Tajriba sinov ishlarining yakuniy bosqichida olib borilgan ishlarni samaradorligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan test so'rovlari tajriba guruhlarini (sinflari) o'quvchilarining musiqa mashg'ulotlari va sinfdan tashqari faoliyatlarda xalq musiqa merosiga, uni tinglash, o'rganish kuylash va zarur nazariy ma'lumotlarni, bilim va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarni egallashi bo'yicha natijalar tahlili, shuningdek, ular tomonidan berilgan savollarga qaytarilgan javoblar mazmunini sinchiklab o'rganish, tajriba avvali va oxiridagi "yuqori", "o'rta", "past" darajalar ko'rsatgichlarini taqqoslash asosida o'quvchilarda xalq musiqa merosiga bo'lgan qiziqishni xalq musiqa merosiga oid davlat ta'lim standartida belgilangan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mezoni" ga muvofiq tarzda shakllantirish maqsadiga erishildi degan xulosaga kelindi. Bu esa umumta'lim maktablari "musiqa madaniyati" darslari va sinfdan tashqari musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarda xalq musiqa merosiga umumiy qiziqishni orttirish, shu jarayonda ularning xalq musiqa merosi, uning muayyan janrlari, ijrochilik shakl va uslublari, an'analari, ularda xalq hayotining ma'lum ko'rinishlarini o'ziga xos in'inos etilishi, xalq musiqasining mumtoz, maqom, dostonchilik yo'nalishlari, uning atoqli namoyondalari hayoti va ijodlari haqidagi bilim va tushunchalarni o'zlashtirish darajalarida sezilarli ijobiy o'zgarish yuz berganligi bizning tadqiqotimiz maqsadi va ilmiy farazini to'g'ri yechim topganligini ko'rsatdi.

Tajriba sinflari uchun:

$$X=4,52 \quad (x)^2 = 20,40; \quad x^2=20,82; \quad S_t^2=0,42; \quad S_t^2/p=0,002$$

Nazorat sinflari uchun:

$$Y=3,79; \quad (Y^2)=14,38; \quad Y^2=14,99; \quad S_H^2=0,61; \quad S_t^2/p=0,003$$

Hosil bo'lgan qiymat ishonchlilik oralig'iga tushmaydi.

Olingan natijalarga ko'ra, birinchi-boshlang'ich faraz rad etilib, unga muqobil bo'lgan ikkinchi farazning haqqoniyligi tasdiqlandi.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi yechimi yo'lida olib borilgan amaliy tajriba-sinov ishlarining natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarida xalq musiqa merosiga oid bilim, tushunchalarni takomillashtirishga oid maxsus metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

UMUMIY XULOSALAR:

1. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish va qo'llanilgan metodlar umumiy o'rta-ta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida o'quvchilarda xalq musiqa merosiga barqaror qiziqishni shakllantirish, shu o'rinda ularda umumiy musiqiy madaniyatni tarkib toptirish, ahloqiy, estetik va ma'naviy tarbiyalash tizimini takomillashtirish muammosining pedagogik xarakter va dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatdi.

2. O'quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirish hamda ularni har jihatdan barkamol shaxs qilib tarbiyalashda xalq musiqa merosidan foydalanishga yo'naltirilgan metodikaning ishlab chiqilishi tajriba sinov ishlarini dastlabki davrida tasdiqlangan holatni (xalq musiqa merosiga qiziqish, uni o'rganish, tinglash, kuylash va unga oid bilim tushunchalarni egallash) bartaraf etib, o'quvchilar tomonidan xalq musiqa merosiga ijobiy va ongli munosabatni paydo qilish imkonini beradi.

3. Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishishini kafolatlovchi omillardan biri-ushbu maqsadni amalga oshirish yo'lida dars va darsdan tashqari faoliyatlarni pedagogik, metodik jihatdan qiziqarli, tushunarli va ilg'or pedagogik yondashuv, usul, shakl, vositalardan o'rinli va unumli faoydalanish lozim bo'ladi.

4. Tadqiqiy izlanishlar davrida yaratilgan, qo'llanilgan o'quv materiallari, dars ishlanmalari, texnologik loyihalar, metodlar umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilari uchun muhim o'quv-uslubiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

5. Qo'llanilgan metodikaning natijalari taxlili shuni ko'rsatadiki, aniq maqsad va tizimli yo'lga qo'yilgan mashg'ulotlar o'quvchi-yoshlarni xalq musiqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, shu bilan birga ularda milliy ong, milliy g'urur, iftixor va estetik dunyoqarashni shakllanishiga samarali ta'sir etadi.

6. Musiqiy estetik ta'lim va tarbiyaning ma'ruza, suxbat, hikoya, savol-javob, munozara, musiqa tinglash, tahlil qilish, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish, «konsert dars» lari, «musiqiy sayohat», «darslarni texnologik loyihalash», fanlar aloqadorligidan unumli foydalanish, o'quvchilar bilan individual va guruh hamda ishlash, amaliy mashqlar o'tkazish, o'quv manbalari (darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar) texnik vositalar (kompyuter, audio, videotexnika) dan o'rinli foydalanish o'quvchilar tomonidan zarur bilim, tushuncha va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarni egallashlarida qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi.

7. Tajriba maktablarida musiqa darslarida xalq musiqa merosi bo'yicha dars mavzulariga, ularga oid o'quv materiallari, ma'lumotlar va kuylash, tinglash uchun tanlanadigan namunalarga ustuvor e'tibor qaratish o'quvchilarda o'zlashtirilgan bilim, malakalarini amaliy faoliyatda qo'llashga bo'lgan qiziqish, intilishlarini kuchayishiga imkoniyat yaratadi.

Tavsiyalar:

1. Umumta'lim maktablarining dars va darsdan tashqari musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni sinflar kesimida yoki fiziologik, psixologik xususiyatlari hamda musiqa darsliklaridan o'rin olgan xalq musiqa merosiga oid bilimlar, tinglash, kuylash uchun tavsiya etilgan asarlar bilan har tomonlama chuqur, puxta tanishtirib borish va ularda xalq musiqa merosiga faol qiziqishni shakllantirishga yordam beruvchi ish usul, shakl, vositalari yoritilgan metodik qo'llanmalarni tayyorlash va ommalashtirish lozim.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining «musiqa madaniyati» fani va musiqiy badiiy to'garaklar rahbarlarida xalq musiqa merosi turli yo'nallishlari bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yishga nisbatan malakaviy tayyorgarlik (malaka oshirish) va texnologik yondashuvni qaror toptirish.

3. Yosh avlod tarbiyasida xalq musiqa merosidan maqsadli va unumli foydalanish maqsadida xalq ijodiyoti markazlari, respublika ta'lim markazi, madaniyat muassasalari, taniqli folklor va ijodiy jamoalar ko'magidan samarali foydalanish choralarini ko'rish.

4. O'quvchilarni darsdan ajralmagan holda turli madaniy tadbirlar, bolalar ijodiyoti markazlari, turli san'at to'garaklari, studiyalar, ko'rik tanlovlarga qatnashishlari uchun zarur shart sharoitlarni yaratish.

5. O'quvchi-yoshlarda xalq musiqa merosiga qiziqish, mehr-muhabbatni oshirish, xalq musiqasi vositasida tarbiyaviy ishlarni olib borish borasida respublika umumiy o'rta ta'lim muassasalarida erishilayotgan yutuqlarning ommaviylashtirilishini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 1991 y.
2. I.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: - O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, - 2000 yil
3. I.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997 y.
4. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: - Ma'naviyat, 2008 y.
5. I.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Toshkent, O'zbekiston, 2015 y
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». –T.: -Ma'rifat gazetasi.
7. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – T.: -XTB, 1995 y.
8. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T.: Ta'lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik ba'zasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora tadbirlari to'g'risida. Toshkent, 2008 y.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000 yil.

11. Teplov B.M. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi. –M.: PFA, 1947 g.
12. R.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. –T.: Musiqa, 2005 y.
13. Akbarov I.A. Musiqa lug’ati. –T.: G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997 y.
14. Apraksina O.A. Metodika muzыkalnogo vopitaniya v shkole. – M.: Prosveshcheniye, 1983g.
15. Asafyev B.V. O xorovom iskusstve. –L.: Muzyka, 1980 g.
16. Gudnova Ye.A. Uzbeksкая xorovaya literatura. (ocherk) –T.: O’qituvchi, 1974 y.
17. O’zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. –T.: O’qituvchi, 1985 y.
18. Sokolova O.P. Dvuxgolosnoye peniye v mladshem xore. –M.: Muzyka, 1987.
19. Gudkova Ye., Vasilyeva F. Ashula darsligi metodikasi. –T.: O’qituvchi, 1974.
20. Sharipova G. Musiqa o’qitish metodikasi. (ma’ruzalar matni). – T.:TDPU-2000y.
21. Soipova D. Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasi. O’quv qo’llanma. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2009 y.
22. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. –T.: TDPI – 1992 y.
23. Estetik tarbiya asoslari. N.Kushayev taxriri ostida. –T.: O’qituvchi, 1987 y.
24. Ro’ziyev Sh. Xorshunoslik. –T.: O’qituvchi, 1987 y.
25. Qudratov I. Bolalar va talabalar ashula va xor jamoalarini tashkil qilish va ular bilan ishlash metodikasi. –T.: Fan va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2006 y.

26. Popov S.V. Organizatsionnyye i metodicheskoye osnovy raboty s xorum. –M.: Muzyka, 1981 y.
27. Demyanov N. Shkola xorovogo peniya. –M.: Prosvещeniye, 1999 g.
28. Qodirov R. Boshlang'ich sinflarda ko'p ovozli kuylash. -T.: - G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997 y.
29. Qo'shiq bizning do'stimiz. Tuzuvchilar: S. Abramova, F.Alimova. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 y.
30. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. 1-sinf uchun darslik. 9-nashri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010 y.
31. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010 y.
32. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009 y.
33. O.Ibrohimov. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009 y.
34. A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012 y.
35. S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. 7-nashri –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012 y.
36. O.Ibrohimov, Sh.Sadirov. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015 y.
37. Adizov R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.f.doktori dissertasiya avtoreferat. –T.: 2003 y. 44 b.
38. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: O'qituvchi, 1992 y. 160 b.

39. Al Buxoriy. Al-adab al-mufrat. (Adab durdonalari) tarj. Muqaddima va izohlar muallifi Sh.Boboxonov. –T.: O‘zbekiston, 1990 y. 199 b.
40. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Mas’ul muxarrir N.Komilov. –T.: Sharq, -1998 y.
41. Yo‘ldoshev Sh.G’, Hasanov S. «Avesto»da ahloqiy ta’limiy qarashlar. Akademik I.Obidov tahriri ostida. –T.: O‘qituvchi, 1997 y.
42. Kaykovus Unsurulmaoliy. Qobusnoma. Forschadan M.R.Ogahiy tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov. –T.: O‘qituvchi, 1986 y. 1688 b.
43. Mahkamov U.I. O‘qituvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. –T.: Fan, 1995. 200 b.
44. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1996. -192 b.
45. Ochilov M. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1995 y. 207 b.
46. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. –T.: Fan, 1995 y. 118 b.
47. B.Madrimov, T.Rajabov. Tarbiyaning jonbaxsh vositasi. – Buxoro, 2015 y. (Uslubiy qo‘llanma)
48. Madrimov B. Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati. –T.:, 2008 y.
49. Shoxodjayev Maxmud Axmedovich. Burxoniddin Marg‘inoniyning Ahloqiy huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati. –T.: 2006 y.
50. Fayzullayev E.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. P.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati. –T.:, 2010 y.

51. Axmedov M. Bo'lajak o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorlash. P.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati. –T.:, 2011 y.

52. Romonova S.Ye. Qoraqalpoq milliy musiqiy an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari. P.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati. –T.:, 2005 y.

53. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. P.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati, -T.:, 2006 y.

54. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. –T.: O'qituvchi, 1993 yil.

55. Hamidov H. O'zbek qo'shiqchilik madaniyati tarixi. –T.:, O'qituvchi, 1994 y.